



O'ZBEKISTON – FRANSIYA: IKKI VA KO'P TOMONLAMA HAMKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI MUHOKAMA ETILGAN TARIXIY TASHRIF

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning taklifiga binoan 11-13-mart kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.



Davlatimiz rahbari 13-mart kuni Parij shahridagi Burbon saroyida Fransiya Milliy majlisi Raisi Yael Braun-Pive bilan uchrashuv o'tkazdi. Ikki davlat o'rtasidagi parlamentlararo

almashinuvni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. Ushbu tashrifning tarixiy ahamiyati, O'zbekiston va Fransiya o'rtasida strategik

sherklik munosabatlari o'rnatilgan katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Fransiya parlamenti quyi palatasi rahbari Yangi O'zbekistonda amalga

oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarni, vakillik organlarining roli, xotin-qizlar, bolalar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari hamda ekologik xavfsizlik kafolatlari kuchayganini yuqori baholadi.

O'zbekiston — Fransiya parlamentlararo forumini tashkil etish va "yo'l xaritasi" asosida do'stlik guruhlari ishini qayta tiklash masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston yetakchisi Milliy majlis Raisini joriy yil aprel oyida Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan Parlamentlararo ittifoqning 150-yubiley assambleyasida ishtirok etish uchun mamlakatimizga taklif etildi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Faxriy mehmonlar kitobida qayd yozib qoldirdi.

Fransiya davlat tashrifi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Parij shahri meri Ann Idalgo bilan uchrashdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari poytaxt merini yozgi Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari muvaffaqiyatli o'tkazilgan bilan samimiy qutladi, shuningdek, Parij ko'chalaridan biriga Samarqand nomi berilganini uchun minnatdorlik bildirdi.

O'z navbatida, Ann Idalgo O'zbekiston rahbariga olimpiada tadbirlari davrida jamoat xavfsizligini ta'minlashda ko'rsatilgan yordam uchun tashakkur bildirdi.

Uchrashuvda O'zbekiston Prezidentining ushbu tashrifi tarixiy natijalar bilan

yakunlangani — ikki mamlakat o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarda strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgan katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Toshkent va Parij o'rtasidagi amaliy hamkorlik va almashinuvlarni imzolangan bitim asosida faollashtirish masalalari muhokama qilindi.

Shaharsozlikni rejalashtirish, "yashil" hududlar barpo etish, jamoat transportini rivojlantirish, raqamlashtirish, shuningdek, shahar kommunikatsiyalarini modernizatsiya qilish va ulardan barqaror foydalanish borasida tajriba almashish shular jumlasidan.

Bundan tashqari, o'zaro ko'rgazmalar, madaniyat va san'at kunlari, sayohlik va gastronomik festivallar o'tkazish masalalari ko'rib chiqildi.

Uchrashuv yakunida Parij ko'chalaridan biriga Samarqand nomi berilishiga bag'ishlangan rasmiy marosim bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari va Parij meri O'zbekiston Prezidenti faxriy mehmon sifatida Parij shahrida bo'lgani to'g'risida qo'shma hujjatni imzoladilar. Ushbu esdalik yorlig'i meriya muzeyida namoyish etildi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiya Respublikasiga tarixiy davlat tashrifining tadbirlarga boy dasturi yakuniga yetdi.

Davlatimiz rahbari Parij shahrida Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron bilan samarali muzokaralar o'tkazdi.

Sammit yakunida Strategik sheriklik munosabatlari o'rnatish to'g'risida qo'shma deklaratsiya, shuningdek, hamkorlikning turli yo'nalishlari bo'yicha bitimlarning salmoqli to'plami qabul qilindi.

Prezidentimiz Fransiyaning yetakchi kompaniya, bank va tashkilotlari rahbarlari bilan davra suhbatida ishtirok etdi. Umumiy qiymati 6,5 milliard yevro bo'lgan aniq kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi Investitsiya va innovatsiya sohasidagi hamkorlik dasturi qabul qilindi.

Ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan salmoqli hisssasi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Fransiya Respublikasining oliy mukofoti — Faxriy legion ordeni bilan taqdirlandi.

UNESCO Bosh direktori Odi Azule bilan muzokaralarda hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari hamda tashkilot Bosh konferensiyasining Samarqand shahridagi 43-sessiyasiga tayyorgarlik ko'rish masalalari muhokama qilindi.

Tashrif tadbirlari yakunlangach, "Orli" xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Fransiya sport va yoshlar vaziri Mari Barsak va boshqa rasmiy shaxslar kuzatib qo'ydi.

O'ZA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

"Ishonchim komil, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o'rtasidagi ezgu hamkorlik an'analarini nafaqat tiklash, har ikki davlat taraqqiyotiga xizmat qiladigan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, ayni paytda ularni bugungi globalizatsiya sharoitiga mos keladigan yangi, yuksak darajaga ko'tarish vaqti keldi. Mamlakatlarimiz oldida turgan vazifalar va amalga oshirilayotgan keng ko'lami demokratik islohotlarning mushtarak xususiyatlarga ega ekani va bu o'zgarishlardan kutilayotgan natijalar ham ko'p jihatdan o'xshash ekanini inobatga oladigan bo'lsak, bunday hamkorlik yanada muhim ahamiyat kasb etadi".

O'ZBEKISTON — FRANSIYA PARLAMENTLARARO DIPLOMATIYASINING YANGI BOSQICHI



Ushbu gaplar Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron qalamiga mansub "Revolutsiya" kitobining O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2019-yili o'zbek tiliga tarjima qilingan va chop etilgan nashriga davlatimiz rahbari yozgan so'zbo'shidan ibtibosdir. O'tgan davrda, haqiqatan, O'zbekiston bilan Fransiya o'rtasidagi hamkorlik aloqalari har tomonlama izchil rivojlanib bormoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Prezident Emmanuel Makronning taklifiga

binoan shu yil 11-13-mart kunlari davlat tashrifi bilan Fransiya bo'ldi. Tashrif doirasidagi muloqotlar kun tartibidan ko'p qirrali O'zbekiston — Fransiya munosabatlari yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari o'rin oldi.

Bunga qadar O'zbekiston Prezidenti 2018 va 2022-yillarda Fransiya rasmiy tashrif buyurgan, o'z navbatida, Fransiya Prezidenti 2023-yili O'zbekistonga rasmiy tashrif bilan kelgandi. Oliy darajadagi ushbu tashriflar

hamkorlik munosabatlarning barcha soha va yo'nalishlarida yangi davrni, ya'ni yuksalish bosqichini boshlab berdi.

Bu haqda fikr yuritganda, turli sohalardagi manfaatli aloqalarimiz rivojini ko'rsatadigan ko'plab raqamlar tafsilotlarni keltirishdan tiyilmoqchimiz. Buning o'rniga madaniy sohada hamkorligimizning yorqin yutug'i bo'lgan ikkita misolga e'tibor qaratish bilan kifoyalanamiz.

Davomi 3-beta

Shavkat Mirziyoyev nomi ham alohida qayd etiladi.

Mazkur orden hozirgacha Fransiya va dunyodagi eng nufuzli mukofotlardan biri bo'lib qolmoqda.

Davlatimiz rahbari sharafiga Yelisey saroyida uyushtirilgan davlat qabul marosimida yuqori martabali mehmon hurmati uchun Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron o'zbek tilida so'zlagani tahsinga sazovor voqea bo'ldi. Fransiya yadok qudratli davlat rahbarining o'zbek tilida lutf qilishi dunyo jamoatchiligini hayratlantirgan shubhasiz.

Tashrifning yana bir kutilmagan yangiligi shuki, Emmanuel Makron instagramdagi sahifasida oliy martabali mehmonga hurmat ma'nosida "Parijga xush kelibsiz! Yashasin O'zbekiston, yashasin Fransiya!" deb yozib qoldirdi. Uning mazkur ijtimoiy tarmoqdagi sahifasini dunyo bo'ylab 4 milliondan ziyod odam kuzatib boradi.

MUZ USTIDAGI OLTIN G'ALABALAR

Xokkey bo'yicha O'zbekiston U-18 terma jamoasi jahonni zabt etdi

Xushxabar

Yaqinda Tailandning Bangkok shahrida xokkey bo'yicha o'tkazilgan U-18 jahon chempionatida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi xokkey jamoasi g'olib bo'ldi. Kuni kecha O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasida xokkey jamoasining murabbiy va sportchilari bilan uchrashuv hamda ularni taqdirlash marosimi tashkil etildi.

Federatsiya raisi Qudratilla Rafiqov tadbiri Prezidentimizning Fransiya rasmiy tashrifi doirasida yuz bergan tarixiy xushxabar bilan boshlandi.

Ikki mamlakat hamkorligini rivojlantirish, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va o'zaro anglashuvni mustahkamlashga qo'shgan ulkan hisssasi uchun davlatimiz rahbarining Fransiya Respublikasining oliy mukofoti — Faxriy legion ordeni bilan taqdirlangani O'zbekiston xalqini, jumladan, 7 millionlik

kasaba uyushma a'zolari va faollarini birdek quvontirdi, — dedi Qudratilla Rafiqov. — Dunyo miqyosida sanoqli shaxslariga sazovor bo'lgan mazkur ordenning O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga topshirilishi davlatimiz rahbari yuritayotgan odilona va oqilona siyosatning, shuningdek, yangi O'zbekistonda barcha sohalarda birdek amalga oshirilayotgan tub islohotlar samarasining dunyo hamjamiyatidagi navbatdagi e'tirofi bo'ldi.

Davomi 2-beta

O'ZBEKISTON

*Qoyalar yashirgan xat — izarlar bor,
Tarixni sug'organ ildizlarim bor,
Quyosh yayrab sugzan kunduzlarim bor,
Osiyo mash'ali — muqaddas yurt bu,
O'zbekiston deya nom olgan mangu.*

*Bigza yo'l ko'rsatgan ulug' ajdodlar,
Bevaqt so'ngan umr, ohu faryodlar,
Ularni yod etar jasur avlodlar,
Qon bilan, jon bilan tiklangan yurt bu,
O'zbekiston deya nom olgan mangu.*

*Ko'ngildan boshlangan daryolarim ko'p,
Ufqqa tutashgan dunyolarim ko'p,
Ko'hna dunyo bilan savdolarim ko'p,
Jahonga hayratlar ulashgan yurt bu,
O'zbekiston deya nom olgan mangu.*

*Farangu arabu yapon, ajamlar...
O'zbekning bog'iga tomgan shabnamlar,
Dunyo tarixini bitgan qalamlar,
Qulluqqa egilgan bezavol yurt bu,
O'zbekiston deya nom olgan mangu.*

*Qarang, Farangiston ochmoqda quchoq,
Quyosh diyorimdan o't olgan o'choq,
Yurtim ziyosiga to'lar har puchmoq,
Yo'li mangukikka tutashgan yurt bu,
O'zbekiston deya nom olgan mangu.*

Salim ASHUR,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi



Абдурахмон Жомий ва Алишер Навоий
муносабатлари тожик-ўзбек халқлари
дўстлигининг олий намунаси дидир!

ASRLAR DAVOMIDA SINALGAN DO'STLIK

Tojikistonning Xo'jand shahrida Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi munosabati bilan adabiy tadbir tashkil etildi.

Davomi 6-beta

FRANSIYAGA RASMIY TASHRIF: DUNYO JAMOATCHILIGINI HAYRATLANTIRGAN VOQEALAR VA YUKSAK EHTIROM

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Fransiya davlat tashrifi kutilmagan va tarixiy voqealarga boyligi bilan jahon matbuotining birinchi sahifalarini egalladi.

Xususan, Prezident Emmanuel Makron davlatimiz rahbarini Fransiyaning eng yuksak davlat mukofoti — Faxriy legion ordeni bilan taqdirlagani tashrifning eng kutilmagan voqeari bo'ldi.

Ma'lumot o'mida aytilish kerakki, Faxriy legion ordeni Fransiyaning eng oliy davlat mukofoti bo'lib, 1802-yilda Napoleon Bonapart tomonidan ta'sis etilgan.

Ushbu ordenning berilishi alohida xizmatlarning davlat darajasida e'tirof

etilishi va shon-sharafning eng yuqori belgisi hisoblanadi. Ta'sis etilganidan buyon xalqaro darajada yuksak nufuz va obro'-e'tiborga ega shaxslar bu mukofotga munosib ko'rib kelingan. Endilikda ushbu mukofot bilan taqdirlanganlar ro'yxatida ikki mamlakat hamkorligini rivojlantirish, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va o'zaro anglashuvni mustahkamlashga qo'shgan ulkan hisssasi uchun bunday e'tirofga munosib ko'rilgan O'zbekiston Prezidenti



SAMARALI MULOQOTLAR KO'PLAB YO'NALISHLARDA

IKKI DAVLAT O'RTASIDA O'ZARO ISHONCH KUCHAYIB BORAYOTGANIDAN DALOLATDIR

Xorijiy ekspert doiralari vakillari oliy darajadagi O'zbekiston — Fransiya sammiti yakunlari haqida

13-mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevning Fransiya uchun kunlik tashrifi yakunlandi.

Yelisey saroyida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning muzokaralari bo'lib o'tdi. Davlat rahbarlari ko'p qirrali O'zbekiston — Fransiya munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalarini yuzma-yuz va delegatsiyalar ishtirokida atroflicha muhokama qildilar.

Savdo-iqtisodiy va investitsiya-moliyaviy sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, Fransiyaning yetakchi kompaniya va korxonalar bilan kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga ustuvor ahamiyat qaratildi. Uzoq muddatli kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'yishga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston — Fransiya investitsiya kengashini ta'sis etish va uning birinchi yig'ilishini joriy yil iyun oyida Toshkent investitsiya forumi doirasida o'tkazish taklif etildi.

Muzokaralar yakunida O'zbekiston va Fransiya yetakchilari Strategik sheriklik o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyani qabul qildilar.

Tashrifning eng muhim nuqtasi, O'zbekiston Prezidentining ikki mamlakat hamkorligini rivojlantirish, xalqimiz o'rtasidagi do'stlik va o'zaro anglashuvni mustahkamlashga qo'shgan ulkan hisssasi uchun Fransiyaning oliy mukofoti — Faxriy legion ordeni bilan taqdirlangani bo'ldi.

Xorijiy ekspertlar Parijda bo'lib o'tgan oliy darajadagi O'zbekiston — Fransiya muzokaralari natijalarini, xususan, uzoq muddatli istiqbolida ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan hamkorlikning aniq maqsadlarini tarixiy deya baholamoqda.



Antonio Buskardini, "Travel Tomorrow" kompaniyasi bosh direktori va asoschisi (Belgiya):

— Parij shahrida bo'lib o'tgan va mamlakatlarimiz o'rtasidagi turizm aloqalarini mustahkamlashda muhim voqeaga aylangan O'zbekiston — Fransiya turizm forumida ishtirok etganidan mamnunman.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Fransiya tashrifi O'zbekiston bilan Fransiya o'rtasidagi nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki turizm, madaniyat va biznes sohalarda ham strategik sheriklik mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

Turizm O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rinni tutadi va bunday forumlar mamlakatning noyob diqqatga sazovor joylarini targ'ib etish, yangi sarmoyaviy sheriklarni jalb qilish uchun qimmatli imkoniyatlar yaratadi.

Men so'nggi yillarda Fransiyaning

eng yirik televizion tarmog'i TV5Monde uchun olitua hujjatli film suratga olish orqali O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga hissa qo'shganidan faxrlanam. Ushbu hujjatli filmlar O'zbekistonni fransuz tilida so'zlashadiganlar o'rtasida tanitishda muhim rol o'ynadi, shuningdek, mamlakatning boy madaniy merosi, tarixiy obidalarini va faol turizm sohasini yoritib berdi.

O'zbekiston 2024-yilda rekord darajadagi 10 million xalqaro sayyohni qabul qildi va bu mamlakatning jahon sayyohlik yo'nalishi sifatidagi jozibadorligini namoyish etdi.

Qolaversa, O'zbekiston turizmni rivojlantirishdan tashqari mehmonxona sektori, infratuzilma va barqaror sayyohlik loyihalarini amalga oshirish uchun Fransiya

investitsiyasini faol ravishda jalb qilyapti. Fransiya biznesi va sayyohlik kompaniyalari bilan aloqalarni mustahkamlash yuqori sifatli turizm xizmatlarini kengaytirish hamda Fransiya va boshqa mamlakatlardan sayyohlarning yangi to'lqinini jalb etishda asosiy omil bo'layotir.

Ana shunday ijobiy o'zgarishlarni inobatga olgan holda, Yevropa poystaxi Bryusseldagi turizm va sarmoyaga bag'ishlangan ixtisoslashtirilgan forumni o'tkazish uchun ushbu jadallikdan foydalanish vaqti keldi deb o'ylayman. Bunday tadbir O'zbekistonning Yevropa bozoridagi ishtirokini kengaytirish, asosiy manfaatdor tomonlarni jalb qilish hamda Yevropa institutlari va bizneslari bilan yangi hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun strategik platformaga aylanishi mumkin.

madaniy-ma'rifiy sohalardagi hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Fransiyaning yetakchi kompaniyalari bilan O'zbekiston iqtisodiyoti rivojiga salmoqli hissa qo'shishi mumkin bo'lgan qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalarini muhokama qilindi. Bunday yuksak darajadagi muzokaralar O'zbekiston rahbariyatining xalqaro maydonda ochiq muloqot va o'zaro manfaatli sheriklik munosabatlariga intilishini bildiradi.

Fransiya kabi yirik davlatlar bilan o'zaro hamkorlikning faollashishi mamlakatning butun dunyodagi mavqeiini mustahkamlaydi va ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantiradi.

UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasiga tayyorgarlik ko'rish kabi xalqaro tashabbuslarda faol ishtirok etishga alohida e'tibor qaratilayotgani rasmiy Toshkentning jahon miqyosida o'z mavqeiini mustahkamlashga intilishidan dalolat beradi.

Mamlakatning tashqi siyosiy faoliyati amalga oshirilayotgan ichki o'zgarishlar bilan birga investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlikni rivojlantirish va mamlakat iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan modernizatsiya strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qilmoqda.



Roy Entoni Rodjers, Malaya universiteti xalqaro va strategik tadqiqotlar kafedrası professori (Malayziya):

— O'zbekiston va Fransiya o'rtasida strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risidagi tarixiy qaror ikki tomonlama hamkorlikning yangi bosqichini aks ettiradi va tomonlarning asosiy masalalarini hal etish hamda uzoq muddatli istiqbolida hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha faol ishlashga tayyorligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Prezidentining Fransiya tashrifi yuqori samarali bo'lib, hamkorlikning ko'plab yo'nalishlari, jumladan, iqtisodiyot, madaniyat, fan va ta'lim sohalariga e'tibor qaratgani ikki davlat o'rtasida o'zaro manfaatdorlik va ishonch kuchayib borayotganidan dalolatdir.

Savdo-iqtisodiy aloqalarning sezilarli darajada kengaygani tashrifning asosiy natijalari sanaladi. 1 milliard yevrodan oshgan ikki tomonlama savdo aylanmasi hajmi, shuningdek, qo'shma korxonalar sonining ko'paygani avvalgi kelishuvlar va qo'yilgan

qadamlar muvaffaqiyatini tasdiqlaydi. Ayniqsa, energetika, infratuzilma va mineral resurslar sohalarida taqdim etilgan umumiy qiymati 6,5 milliard yevro bo'lgan yangi yirik loyihalar diqqatga sazovor. Bu, shubhasiz, rasmiy Parijning O'zbekistonga yirik investitsiya va uzoq muddatli iqtisodiy loyihalar bo'yicha yaqin hamkor sifatida qiziqishi ortib borayotganidan guvohlik beradi.

O'zbekiston — Fransiya investitsiya kengashini tuzish va uning birinchi yig'ilishini Toshkent investitsiya forumi doirasida o'tkazish taklifi investitsiyalar sohasidagi o'zaro hamkorlikni institutsionalashtirish va sifatini oshirish uchun muhim qadamdir. Bu yangi sarmoyalarni jalb qilish va fransuz bizneslari o'rtasida ishonchni oshirishga yordam berishi mumkin.

E'tiborlisi, muzokaralar chog'ida madaniy almashinuv, jumladan, ko'rgazmalar o'tkazish,

O'zbekistonda Fransiya merosi institutini tashkil etish va O'zbek-fransuz universitetini ochish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Bu madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlash, ta'lim va madaniy merosni asrab-avaylash sohasida bilim va tajriba almashish uchun platforma yaratishda muhim qadamdir.

O'zbekiston Prezidentiga Faxriy legion ordeni topshirilishi tashrifning eng muhim nuqtasi bo'ldi. O'zbekiston rahbarining ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirishdagi xizmatlari e'tirof etilishi O'zbekistonning xalqaro obro'-e'tiborini, jahon miqyosidagi mavqeiini mustahkamlashda katta yutuq.

Umuman olganda, O'zbekiston Prezidentining Parijga tashrifi ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlash, iqtisodiy o'sish va madaniy almashinuv uchun yangi imkoniyatlar ochadi.



Kasper Oxman, "Kierunek Kawkaz" axborot-tahlil portali asoschisi (Polsha):

— Ushbu tashrif Shavkat Mirziyoyev 2016-yil dekabr oyida O'zbekiston Prezidenti lavozimiga kirishganidan so'ng amalga oshirayotgan xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish va ochiqlik siyosatiga mos keladi.

Qolaversa, tashrif O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi xalqaro munosabatlarni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadamdir. Shubhasiz, mazkur uchrashuv iqtisodiy,

Syuy Tao, Yevroosiyo ijtimoiy taraqqiyot instituti direktori o'rinbosari (Xitoy):

— O'zbekiston Prezidentining Fransiya davlat tashrifi ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni rivojlantirish uchun yangi istiqbollarni ochmoqda. Imzolangan hukumatlararo va idoralararo kelishuvlarning mustahkam to'plami har ikki tomonning ko'p qirrali hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga jiddiy intilishidan dalolat beradi.

Fransiyaning yetakchi kompaniya va korxonalarini, jumladan, "yashil" va sanoatni rivojlantirish sohasida amaliy hamkorlik loyihalariga qaratilayotgan alohida e'tibor O'zbekiston iqtisodiyotiga salmoqli investitsiya jalb etish, yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradi.

Davlat tashrifi doirasida madaniyat, turizm, ta'lim va tibbiyot sohalarida o'tkazilgan ko'plab qo'shma tadbirlar O'zbekiston — Fransiya munosabatlaridagi ushbu muhim voqeaga yanada shijoat bag'ishladi.



Tashrif dasturidan UNESCO Bosh direktori bilan uchrashuv o'rin olganiga ham e'tibor qaratdim. Shu munosabat bilan O'zbekistonning xalqaro madaniy-gumanitar hamkorlikdagi, xususan, UNESCO doirasidagi faol roli alohida ta'kidlanmoqchiman. Joriy yilda UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining tarixiy Samarqand shahrida o'tkazilishi O'zbekistonning bu boradagi sa'y-harakatlarining xalqaro miqyosidagi e'tirofidir.

O'zbekiston Prezidentining Fransiya davlat tashrifi uzoq muddatli istiqbolida ikki mamlakat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tashrif tomonlarning do'stlik va o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlashga intilishini namoyish etdi, bu nafaqat ikki tomonlama munosabatlar, balki mintaqaviy aloqalarni rivojlantirishda muhim omildir.

Ashraf Abu Arafa, "Al-Diplomasi" axborot agentligi bosh muharriri (Misr):

— Tashrif ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlagan, ko'p qirrali hamkorlikning yangi istiqbollarni ochgan muhim voqeaga bo'ldi.

Bunday tashriflar ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib, iqtisodiy, sarmoyaviy, madaniy-ma'rifiy va boshqa sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi. Muzokaralar davomida erishilgan kelishuvlar, jumladan, strategik sheriklik munosabatlarini yo'lga qo'yish O'zbekiston — Fransiya hamkorligiga yangi sur'at bag'ishlaydi.

Tashrifning iqtisodiy jihatiga alohida e'tibor qaratish joiz deb o'ylayman. Imzolangan shartnomalar va investitsiya loyihalari ilg'or texnologiyalarni jalb etish, infratuzilma, energetika, transport va muhim mineral xomashyolar tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu kelishuvlar iqtisodiy o'sish va har ikki mamlakat aholisi farovonligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Madaniy-gumanitar hamkorlik ham tashrifning birdek muhim jihati. Toshkentda O'zbek-fransuz universitetining ochilishi,



qo'shma ta'lim tashabbuslari va ilmiy hamkorlikning chuqurlashtirish inson kapitali va bilim almashinuvini mustahkamlashga xizmat qiladi. Yana bir muhim tashabbus O'zbekistonda fransuz tilini o'qitishning kengayishi bo'lib, bu xalqlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi.

O'zbekiston Prezidentining Fransiya davlat tashrifi uzoq muddatli istiqbolida ikki mamlakat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tashrif tomonlarning do'stlik va o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlashga intilishini namoyish etdi, bu nafaqat ikki tomonlama munosabatlar, balki mintaqaviy aloqalarni rivojlantirishda muhim omildir.

Rahmon O'Imasov, Rossiya — Tojikiston (slavyan) universiteti professori:

— Sovet Ittifoqi parchalanib, 1991-yilda mustaqillikka erishgan O'zbekiston ham mintaqada, ham jahonda murakkab munosabatlar yo'lini bosib o'tdi.

O'zbekiston Prezidentining Parijga tashrifi misli ko'rilmagan va murakkab xalqaro vaziyatda o'tdi. Bir paytlar Markaziy Osiyo yetakchilarining Yelisey saroyida kutib olinishini tasavvur qilish qiyin edi. O'zbekiston Fransiya bilan munosabatlarda yetakchi hisoblanadi. Buni raqam va faktlar ham tasdiqlaydi.

Ishonchim komilki, ikki tomonlama o'zbek-fransuz munosabatlari O'zbekiston bilan qo'shni davlatlarga ham ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, tashrif Fransiyaning Yevropa qit'asidagi faoliyati nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Imzolangan hujjatlar



ham iqtisodiy, ham boshqa sohalardagi sheriklik ko'lamlari kengaytirib, hamkorlikning barcha mumkin bo'lgan yo'nalishlarini qamrab oldi.

Bu har ikki tomon ham hamkorlikni chuqurlashtirishga intilishining yaqqol siyosiy belgisidir. Tashrif 1992-yilda diplomatik munosabatlarni o'rnatilganidan buyon erishilgan salmoqli yutuqlarni yaqqol namoyish etadi va global muammolarni birgalikda hal etish bo'yicha umumiy intilishni tasdiqlaydi.

"Dunyo" AA

Boshlanishi 1-betda

Shundan so'ng Q.Rafiqov O'zbekiston kasaba uyushmalari harakatining 120 yilligi oldidan qo'lga kiritilgan ulkan g'alaba uchun sportchilarga minnatdorlik bildirdi. Terma jamoa a'zolari va murabbiylari esdalik sovg'alar va pul mukofoti bilan taqdirlandi.

O'zbekiston terma jamoasi ilk marta bunday nufuzli chempionatda ishtirok etganiga qaramay, barcha jamoalar ustidan o'ta ishonchli va yirik hisobda g'alabaga erishdi. Masalan, Janubiy Afrika Respublikasini 12:0, Lyuksemburgni 12:1, Turkmanistonni 8:2, Bosniya va Gersegovinani 11:3 va nihoyat hal qiluvchi bahsda Tailand jamoasini 3:2 hisobida yengdi va mutlaq chempion bo'ldi.



MUZ USTIDAGI OLTIN G'ALABALAR

Xokkey bo'yicha O'zbekiston U-18 terma jamoasi jahonni zabt etdi

Jamoa sardori Jasurbek Rustamxonov 14 ta goli (shaybasi) va 8 ta uzatmasi evaziga turnirning "Eng yaxshi hujumchi" va "Eng yaxshi o'yinchi", Rustam Ergashev esa "Eng yaxshi darvozabon" nominatsiyasiga munosib ko'rildi.

— Bu bizning birinchi ishtirokimiz. Shu bois, katta hayajon hamda mas'uliyat yukladi, — deydi Jasurbek Rustamxonov. — Chempionatga qat'iy intizom asosida tayyorgarlik ko'rdik. Natijada barcha jamoani yirik hisobda yengdik. Oxirgi o'yin qiyinroq kechdi, ammo uyushqoqlik bilan mezonlar terma jamoasini ham yengdik. Bizning bu g'alabamiz muhtaram Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizda sportning xokkey turini rivojlantirishga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor va yosh sportchilar uchun yaratib berilayotgan sharoit hamda imkoniyatlar natijasidir. Bugungidek rag'bat va e'tibor bizni ruhlantiradi hamda keyingi muhim o'yinlarda kuch beradi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Chempionlarimizni tayyorlagan murabbiylar shtabi Normunds Seyeys, Abdumajid Nosirov va Roman Krivomazov kabi tajribali mutaxassislardan iborat.

Uchrashuvda murabbiylar yurtimizda barcha sport turlari qatori xokkeyga qaratilayotgan e'tibor va ishonch uchun minnatdorlik bildirdi.



— Bizga ishonch bildirgan va faoliyat yuritishimiz uchun keng imkoniyatlar yaratib bergan Prezidentimizga katta rahmat, — deydi terma jamoa murabbiyi Abdumajid Nosirov. — Ushbu chempionatdan avval Osiyo turirlarida qatnashib, tajriba to'plaganmiz. Bir necha nufuzli musobaqada g'olib bo'lganmiz. Jahon chempionatiga bir yil tayyorlandik. Bugungi g'alaba shukhi va kayfiyat mana shunday mehnatlar samarasidir. Shogirdlarim bundan juda xursand. O'ziga ishonchi baland. Mana shu ruhda davom etib, bundan keyin ham katta marralarni zabt etishni ko'zlayamiz. Ushbu g'alaba jamoamizga kelgusi yili III divizionning "A" guruhida qatnashish imkoniyatini taqdim etdi.

Xo'sh, bu nima degani? Xalqaro xokkey federatsiyasi tomonidan tashkil etiladigan U-18 jahon chempionati bir necha divizionga bo'lingan. Jamoalar o'z darajasiga qarab turli divizionda qatnashadi. III B divizion — past darajadagi divizionlardan biri. O'zbekiston U-18 terma jamoasi shu divizionda ishtirok etib, barcha raqiblarini mag'lub etdi va III A divizionga ko'tarilish huquqini qo'lga kiritdi.

Jamoamiz bu divizionda ham g'olib chiqsa, keyingi bosqichga — II divizionga ko'tarilishi mumkin. Boshqacha aytganda, har bir bosqichda g'olib bo'lgan jamoa yuqoriroq divizionga chiqadi, eng kuchsiz jamoa esa yuqiga tushib ketadi. Bu xokkeyda "ko'tarilish va tushib ketish" tizimi deb ataladi. O'zbekistonning III A divizioniga chiqishi xalqaro miqyosda kuchliroq jamoalar bilan bellashish va tajriba o'rtirish uchun katta imkoniyat, degani.

Xokkey jamoaviy o'yini sportchilardan o'ziga xos chaqonlik, favqulodda husyorlik va ust uzida yerdagidek erkin harakat qila olish mahoratini talab etadi. Xokkeyning rasmiy o'yinlari odatda -5 gradus atrofida muhitda o'tkaziladi. Ochiq havodagi o'yinlarda undan ham sovuq bo'lishi mumkin. O'yin davomida xokkeychilar juda katta tezlikda — soatiga 40-50 kilometrdan 180 kilometragacha harakatlanadi va o'rta 6-8 kilometr masofani bosib o'tishi mumkin.

Rashid XO'JAMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

“

Xalqaro va davlatlararo munosabatlarda o‘zaro ishonch yo‘qolib borayotgan bugungi tahlil va notinch davrda Fransiya bilan strategik hamkorlikni nihoyatda qadrlaymiz. Ikki tomonlama, mintaqaviy va global muammolar yuzasidan qarashlarimiz yaqinligi ham juda muhim.

O‘ZBEKISTON — FRANSIYA PARLAMENTLARARO DIPLOMATIYASINING YANGI BOSQIHI



Akmal SAIDOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O‘zbekiston — Fransiya do‘stlik guruhi raisi

Boshlanishi 1-betda

Birinchisi misol: 2022-yilda Parijning naq markazida — dunyodagi eng mashhur muzeylardan biri, Fransiyaning noyob durdonasi hisoblanuvchi Luvr muzeyida O‘zbekiston madaniy merosiga bag‘ishlangan dastlabki yirik ko‘rgazma yuqori darajada o‘tkazildi.

Ikkinchi misol: 2024-yilda Fransiya mezbonlik qilgan yozgi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida mamlakatimiz sportchilari faol ishtirok etib, tarixiy natijalarga erishdi. Ya‘ni o‘z tarixida ilk bor eng ko‘p medallar jam‘argan O‘zbekiston bu borada katta yutuqlarni qo‘lga kiritib kelayotgan 15 ta peshqadam davlat safidan o‘rin oldi.

O‘zbekiston Fransiyani dunyoning siyosiy va iqtisodiy yetakchilaridan biri deb biladi. Fransiya Yevropa siyosatida katta rol o‘ynaydi va parlamentarizm bo‘yicha boy tajribaga ega. Shu ma‘noda, Prezidentimiz bu galgi davlat tashrifi doirasida Parij shahrining Burbon saroyida Fransiya Milliy majlisi Raisi Yael Braun-Pive bilan uchrashuv o‘tkazgani alohida ahamiyatga ega.

Muloqot avvalida Yael Braun-Pive xonim: “Parlament — fransuz demokratiyasining yuragi. O‘zbekiston Fransiyaning do‘sti, strategik hamkori deb hisoblaymiz. O‘zbekistonga yaqin hamkor ekanimiz bilan g‘ururlanamiz.

Fransiya O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy siyosatini qo‘llab-quvvatlaydi, binobarin, keyingi yillarda mintaqada mulqo yangi siyosiy muhit vujudga keldi. O‘zbekistondagi keng ko‘lamli islohotlar va ularning natijalari ham e‘tiborga sazovor. Bunday natijalarga birgina aniq misol — bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berildi. O‘zbekistonning bu boradagi tajribasi ko‘plab davlatlar uchun o‘rnak va namuna bo‘lishga munosib“, deya ta‘kidladi.

Shuningdek, Yael Braun-Pive xonimning fikricha, parlament diplomatiyasi, ayniqsa, parlamentlarimizning do‘stlik guruhlari

faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish lozim. Zero, parlamentlararo muloqot davlatlarimiz o‘rtasidagi strategik hamkorlikning “katalizatori” bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Prezidenti Fransiya parlament Milliy majlisi Raisining fikrlarini ma‘qullar ekan, “Men o‘zim ham 15 yil parlament a‘zosi bo‘lganman, shuning uchun parlament hayotini ich-ichidan his etaman, parlament — bu xalq uyi, xalq ovozi“, deya uqtirdi. Parlament islohotlarimizning huquqiy asoslarini yaratishda faol ishtirok etmoqda. Shu bois, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda Prezidentning ayrim vakolatlari parlamentga berildi.

— Bundan ikki yil avval qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish yuzasidan o‘tkazilgan referendumda 85 foiz saylovchi qatnashdi, — dedi Prezidentimiz. — Biz uchun eng muhimi — xalq ovozi eshitish, xalqimiz muammolarini hal etishdir. Chunki yangi O‘zbekistonda xalqchil davlat quraymiz. Mahalla institutiga katta e‘tibor qaratmoqdamiz.

O‘zbekiston Prezidenti mamlakatimizda kechayotgan demokratik islohotlar endi ortga qaymas tut olganiga e‘tibor qaratdi. Qat‘iy siyosiy iroda bilan odamlarni bunday yashash endi mumkin emasligiga ishonтира oldik. Xalq bizga ishonгани uchun ham islohotlarni qo‘llab-quvvatlamog‘da.

Yangi O‘zbekistonning islohotlar strategiyasida hamma uchun teng imkoniyatlar yaratish, inson huquqlarini hurmat qilish, xalq farovonligini oshirish va aholiga munosib turmush sharoitini ta‘minlash ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, haqiqatan, bugungi kunda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron bundan necha asrlar ilgari yashab o‘tgan shavkatli ajdodlarimiz Amir Temur va Sharh VI orzularini real voqelikka aylantirmog‘da.

O‘zaro subhat asnosida Prezidentimiz uchta aniq taklifni olg‘a surdi.

Birinchisi, Fransiya Milliy majlisi Raisi va fransuz deputatlarini joriy yil aprel oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadigan Parlamentlararo ittifoqning 150-yubiley assambleyasida ishtirok etish uchun mamlakatimizga taklif qilindi.

Ikkinchisi, O‘zbekiston — Fransiya parlamentlararo forumini o‘tkazish taklifini bildirdi.

Uchinchisi, O‘zbekiston parlamentining Qonunchilik palatasi va Fransiya parlamentining Milliy majlisida O‘zbekiston — Fransiya do‘stlik guruhlari qayta tuzilgani munosabati bilan ularning faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish muhimligini qayd etdi.

Davlatimiz rahbarining taklif va tashabbuslarini Fransiya tomoni to‘la qo‘llab-quvvatlaydi. Uchrashuv yakunida O‘zbekiston Prezidenti faxriy mehmonlar kitobida qayd yozib qoldirdi.

Ta‘kidlash kerakki, hozirgi kunda O‘zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Fransiya Milliy Assambleyasi o‘rtasidagi parlamentlararo aloqalar jadal rivojlanmoqda. Yaqinda O‘zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Fransiya Milliy Assambleyasi

bilan parlamentlararo hamkorligi bo‘yicha guruh tuzilgani, keyingi sakkiz yil ichida parlamentlarimiz vakillari o‘rtasida yigirmaga yaqin ikki tomonlama tashrif va muloqot tashkil etilgani bu fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

O‘zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlariga mos keladigan 2030-yilgacha

O‘zbekistonda 2024-yil oktabr oyida parlament saylovi ilk bor aralash tizim asosida o‘tkazildi. BMT tavsiyalariga muvofiq, ayol nomzodlar kvotasi 40 foizgacha oshirildi. Islohotlar natijasida parlament quyi palatasidagi xotin-qizlar 38 foizga yetdi, bu ko‘rsatkich xalqaro tashkilotlar tavsiyalariga hamohangdir.

“

Yangi O‘zbekistonning islohotlar strategiyasida hamma uchun teng imkoniyatlar yaratish, inson huquqlarini hurmat qilish, xalq farovonligini oshirish va aholiga munosib turmush sharoitini ta‘minlash ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, haqiqatan, bugungi kunda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron bundan necha asrlar ilgari yashab o‘tgan shavkatli ajdodlarimiz Amir Temur va Sharh VI orzularini real voqelikka aylantirmog‘da.

bo‘lgan strategiya izchil amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarini qo‘llab-quvvatlash bilan birga cheklanib qolmay, ushbu maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan muhim tashabbuslarni ham ilgari surmoqda.

BMT Bosh Assambleyasi “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi rezolyutsiyani aynan O‘zbekiston tashabbusi asosida qabul qildi. Shu o‘rinda xalqaro hamjamiyatning oliy minbaridan ilgari surilgan ushbu taklifimizni qo‘llab-quvvatlagani uchun fransuz hamkasblarimizga alohida minnatdorlik bildirilmiz.

Bundan ikki yil avval yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilish munosabati bilan o‘tkazilgan umumxalq referendumida Fransiya parlament Senati a‘zolari R.Rishar va A.Vallini xalqaro kuzatuvchilar maqomida ishtirok etgandi. Shuningdek, O‘zbekiston Prezidenti saylovi jarayonlarida xalqaro kuzatuvchilar maqomida ishtirok etgan Fransiya — O‘zbekiston do‘stlik guruhi raisi E.Morey rahbarligidagi Fransiya parlament Senati delegatsiyasi a‘zolari bilan 2023-yil 8-iyulda sermazmun muloqot qilganmiz.

Ayni vaqtda Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Yurtimizda gender tenglik, so‘z va e‘tiqod erkinligini ta‘minlash, qiynoqlarga qarshi kurashish borasida aniq va samarador qadamlar qo‘yilmoqda. Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularga nisbatan har qanday zo‘ravonlikka barham berishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Saylov arafasida, 2024-yil 6-8-oktabr kunlari O‘zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining kamina rahbarligidagi delegatsiyasi Parijda bo‘lgandi. Biz o‘shanda Fransiya keng jamoatchiligiga mamlakatimizdagi saylovning mazmun-mohiyati haqida atroflicha ma‘lumot berish uchun qator uchrashuvlarda qatnashganmiz.

O‘zbekistonning yangi parlamenti milliy qonunchilikni Konstitutsiya normalariga muvofiq yangilash, dunyoviy va ijtimoiy davlat tamoyillarini hayotga tatbiq etish borasida faol ishlamoqda. Yaqinda Fuqarolarning vijdon erkinligini ta‘minlash va diniy sohada davlat siyosati konsepsiyasi qabul qilindi.

Keyingi davrda sayyorimizdagi keskin iqlim o‘zgarishlari, suv va boshqa tabiiy resurslarning kamayishi jiddiy muamмога aylanoqda. O‘zbekiston tomoni Fransiyaning 2050-yilgacha uglerod neytralligiga erishish orqali Yevropani uglerodsiz rivojlanadigan dastlabki yirik iqtisodiyotga aylantirish borasidagi yondashuvini, umuman olganda, ushbu hamkor mamlakatning ekologiyani asrab-avaylashga doir qat‘iy va oqilona yo‘lini qo‘llab-quvvatlaydi.

Bu haqda fikr yuritganda, ekologiya va atrof-muhit masalalarini biz ham inson huquqlarini ta‘minlashning ajralmas qismi sifatida ko‘rishimizni ta‘kidlash o‘rinlidir. Binobarin, qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquq yangilangan Bosh qonunimizda alohida konstitutsiyaviy normalar bilan mustahkamlab qo‘yildi.

Yana bir muhim qadam: O‘zbekistonda 2025-yil Atrof-muhitni muhofaza qilish va “yashil iqtisodiyot” yili deb e‘lon qilindi.

Mamlakatimiz Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Parij bitimiga va Orxus konvensiyasiga qo‘shilgan. Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolarni samarali hal qilish uchun Prezident huzurida Iqlim kengashi tuzilmoqda.

O‘zbekistonda “Yashil makon” umummilliy loyihasi amalga oshirilayotganiga uch yil bo‘ldi. O‘z navbatida, qo‘shni va qardosh davlatlar bilan hamkorlikda Mintaqaviy iqlim strategiyasini amalga oshirishga kirishdik. Toshkentda Atrof-muhit va iqlim o‘zgarishlarini o‘rganish bo‘yicha Markaziy Osiyo universiteti tashkil etildi. Bundan tashqari, O‘zbekiston BMT tomonidan ushbu sohada qabul qilingan ikkita muhim rezolyutsiyaning tashabbuskori sanaladi.

Hozirgi kunda insoniyat juda og‘ir davrni boshdan kechirmog‘da. Xalqaro munosabatlarda o‘zaro ishonchga darz ketmog‘da, qaralama-qarshilik va mojarolar tobora kuchaymog‘da, barqarorlik va taraqqiyotga turli tahdidlar xavf solmog‘da. Afsuski, bu muammolar O‘zbekiston va Fransiyani ham chetlab o‘tmayapti.

BMT 2025-yilni Xalqaro tinchlik va ishonch yili deb e‘lon qilgani bejiz emas. Chunki murakkab geosiyosiy tanglik, qurolli to‘qnashuvlar va oliyaviy bosim kuchayishi global iqtisodiy tanazzulga sabab bo‘ldi. O‘z navbatida, bunday nomaqbul ahvol hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun intilyotgan millionlab odamlarni chuqur tahlilga solib, turli muammolar girdobiga tashladi.

Shunday ekan, BMT tashkil topganing 80-yilligi nishonlanadigan yilda dunyo parlamentlari hal qiluvchi o‘rinni egallashi zarur. Milliy parlamentlar butun jahon miqyosida har tomonlama hamkorlikni ta‘minlash, tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, barqaror rivojlanish va ishonchini tiklashda alohida rol o‘ynashi taqozo etiladi.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston tashabbusi bilan 5-6-aprel kunlari Parlamentlararo Ittifoqning 150-yillik yubiley assambleyasi ilk bor Markaziy Osiyo zaminida — aynan Toshkent shahrida bo‘lib o‘tishi diqqatga sazovor. Assambleyaning asosiy mavzusi “Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati” ekan ham bejiz emas. Biz hamkasblarimiz, Fransiya parlamenti a‘zolarining ushbu xalqaro parlamentariyalar forumida faol ishtirok etishiga umid qilamiz.

So‘nggi yillarda Oliy Majlisning har ikki palatasiga an‘anaviy qonun ijodkorligi funksiyalaridan tashqari yanada keng vakolalar berildi. Xususan, ijro hokimiyati organlari faoliyat ustidan parlament nazorati kuchaytirildi, hukumatning hisobotlari muntazam eshitib borilmoqda.

Davlat qurilishi jabhasidagi bunday zamonaviy yondashuv milliy parlamentning yurтимiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotini rivojlantirishda muhim o‘rin egallayotganidan dalolat beradi. Binobarin, O‘zbekiston bu borada Fransiya bilan tajriba almashishdan manfaatdor.

Biz Fransiya bilan erishilgan parlamentlararo hamkorlik darajasini qadrlaymiz. Ikki mamlakat parlamentlarida parlamentlararo do‘stlik guruhlari faoliyat ko‘rsatayotgani tomonlar munosabatlarining ushbu muhim yo‘nalishini

rivojlantirishdan manfaatdor ekan tasdiq‘idir. O‘tgan davr mobaynida faol tashriflar almashildi, xususan, O‘zbekiston — Fransiya guruhi a‘zolari o‘rtasida muntazam ravishda muzokaralar o‘tkazilmoqda.

Eng asosiy, Prezidentimizning Fransiya davlat tashrifi doirasidagi muloqotlar asnosida mamlakatlarimiz qonun chiqaruvchi organlari o‘rtasida tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish istiqbollari atroflicha muhokama qilindi.

Bu borada ilgari surilgan amaliy takliflar, xususan, joriy yilda fransuz hamkasblarimiz ishtirokida Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi qabul qilinganining 30 yilligiga bag‘ishlab “O‘zbekiston — Fransiya: gender tenglikni ta‘minlashda parlamentning roli” parlamentlararo forumini o‘tkazish taklifi alohida e‘tiborga molik.

Yevropaning qoq yuragida joylashgan Fransiya bilan o‘zaro hamkorlik istiqbollari haqida so‘z boranda, albatta, ushbu mamlakat sun‘iy intellekt bo‘yicha global hamkorlik borasida nafaqat ko‘hna qit‘ada yetakchi, balki bu borada butun jahonning markazi ham ekanini alohida qayd etish darok. Joriy yil fevralida Fransiya tashabbusi bilan “Sun‘iy intellekt sohasidagi sa‘y-harakatlar bo‘yicha sammit” muvaffaqiyatli o‘tkazilgan fikrimizning amaliy isbotidir.

Aslida ham sun‘iy intellekt butun dunyomizni o‘zgartirmog‘da. Bu shunchaki texnologiya emas, balki bizning yashash, ishlash va o‘zaro munosabatlarimizni o‘zgartirishga chog‘layotgan qudratli vositadir.

Yer yuzida tinchlik, xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta‘minlash uchun sun‘iy intellekt dan unumli foydalanish zarurligi borasida mamlakatlarimizning yondashuvlari o‘xshash. O‘zbekistonda Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi amalga oshirilmoqda. Shuningdek, Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi.

Biz ilm-fan sohavi va fuqarolik jamiyati ishtirokiga asoslangan sun‘iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash uchun mustahkam huquqiy asos yaratish kerak deb hisoblaymiz. Shuning uchun bu boradagi umumiy standartlarni ishlab chiqishda fransiyalik hamkasblarimiz bilan hamkorlikdan manfaatdormiz.

Davlatimiz rahbarining Fransiya davlat tashrifi O‘zbekistonning muloqot uchun har doim ochiqligi va ikki tomonlama kun tartibining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha o‘zaro hamkorlikni kengaytirish niyatida qat‘iy va sobit ekaniga o‘ziga xos dalildir. Yanada muhimi, ushbu oliy darajadagi tashrif yakunida imzolangan hamkorlik hujjatlari O‘zbekiston va Fransiya davlatlari o‘rtasidagi sherkidli va do‘stlik aloqalari rivojiga shiddatli sur‘at hamda yuqori mazmun-mohiyat bag‘ishlaydi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro va davlatlararo munosabatlarda o‘zaro ishonch yo‘qolib borayotgan bugungi tahlil va notinch davrda Fransiya bilan strategik hamkorlikni nihoyatda qadrlaymiz. Ikki tomonlama, mintaqaviy va global muammolar yuzasidan qarashlarimiz yaqinligi ham juda muhim. Bu omillarning barchasi, o‘z navbatida, hamkorlikning boshqa sohalar qatori parlamentlararo munosabatlarimizni ham yangi bosqichga ko‘tarishni taqozo etadi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar, ayniqsa, sun‘iy intellekt dunyo davlatlari uchun yangi imkoniyatlarni yaratibgina qolmay, yangi murakkabliklarni ham tug‘diradi.

Sun‘iy intellekt texnologiyalari bilan bog‘liq muammolarga nafaqat dunyodagi yetakchi davlatlar, balki rivojlanayotgan mamlakatlar ham katta qiziqish bilan e‘tibor qaratmoqda. Xususan, Fransiya Yevropaning yetakchi texnologik markazlaridan biri sifatida sun‘iy intellekt sohasida o‘ziga xos yutuqlarga erishmoqda. Bu borada boshqa davlatlar bilan izchil hamkorlik qilmoqda.

Fransiyada sun‘iy intellekt tadqiqotlari va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi yirik markazlar, universitetlar va texnoparklar mavjud. Mamlakat hukumati sun‘iy intellekt texnologiyalari rivojini davlat strategiyasi sifatida ko‘radi. Xususan, 2018-yilda bu borada tashabbusini boshlab, sohaga milliardlab yevro mablag‘ ajratdi. Bundan tashqari, Parij dunyoning eng yirik sun‘iy intellekt startaplari va xalqaro hamkorliklar markaziga aylangan. Fransiyaning yetakchi oliy ta‘lim dargohlari

SUN‘IY INTELLEKT BO‘YICHA HAMKORLIK BARCHA SOHALARDA AMALGA OSHIRILADI

sun‘iy intellekt bo‘yicha dunyoga mashhur tadqiqotlar olib boradi.

O‘zbekiston ham keyingi yillarda raqamli transformatsiya va texnologik rivojlanishga katta e‘tibor bermog‘da. Mamlakatda sun‘iy intellekt, ma‘lumotlar tahlili va avtomatlashtirish sohalarida yangi loyihalar amalga oshirilmoqda.

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi qabul qilinib, sun‘iy intellekt va boshqa zamonaviy texnologiyalarni joriy etish maqsad qilingan. Shuningdek, sun‘iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevralda “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. Ushbu hujjat doirasida qishloq xo‘jaligi, bank, moliya, transport, sog‘liqni saqlash, farmatsevtika, energetika, soliq va boshqa ustuvor tarmoqlarda sun‘iy intellektni joriy etish bo‘yicha tajribasinoov loyihalari amalga oshirildi.

Mazkur islohotlarning mantiqiy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrda “Sun‘iy intellekt



texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, sun‘iy intellekt

asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmi 1,5 milliard dollarga yetkaziladi.

xalqaro tajriba asosida ta‘lim dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha muhokamalar o‘tkazildi.

O‘zbekiston va Fransiyaning sun‘iy intellekt borasidagi hamkorligi ko‘plab yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Xususan, Fransiyaning yetakchi universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikda O‘zbekistonda sun‘iy intellekt bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Magistratura va doktorantura dasturlarini joriy etish, o‘qituvchilar va talabalar uchun almashinuv dasturlarini tashkil etish ham yaxshi samara beradi. Ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar yo‘nalishida esa ikki mamlakat ilmiy markazlari o‘rtasida qo‘shma loyihalar hamda tadqiqotlar olib borish lozim. Shuningdek, Fransiyaning texnologik ekotizimi va O‘zbekistondagi yosh startaplari o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, qo‘shma forumlar, ko‘rgazmalar va treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasida sun‘iy intellekt bo‘yicha hamkorlik nafaqat ikki mamlakat, balki butun dunyo uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Baxtiyor MAHKAMOV,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori, professor O‘ZA



Yangicha yondashuvlar

Mamlakatimizda 183,7 ming kilometr dan ortiq sug'orish tarmog'i mavjud bo'lib, ularning 13,1 foizi beton qoplama, 76,3 foizi tuproq o'zani va 10,6 foizi beton ariqlar (lotok) dan iborat. Hozirgi kunda klaster va fermer xo'jaliklari tasarrufidagi sug'orish tizimlari asosiy vositalarining 25-30 foizi ta'mirlanib holga kelgan. O'rtacha gidrologik suv ta'minotida sug'orish tizimining bir gektar maydondagi ekinga suv yetkazib berishining ishonchlilik holati 30-35 foizni tashkil etadi.

KOMPOZIT MATERIALLI SUG'ORISH ARIQLARI

suv taqchilligi ortib borayotgan hozirgi sharoitda juda zarur mahsulot

Yurtimizdagi aksariyat suv xo'jaligi infratuzilmasi obyektlarining xizmat ko'rsatish muddati 40-45-yildan ortib, texnik holati yildan yilga yomonlashmoqda. Xususan, irrigatsiya tizimi kanallarining tuproq o'zani qismi suvning filtratsiyasi hisobiga yemirilish xavfi ostida. Bundan tashqari, 77 foiz kanal ta'mirlash va tiklashga, 20 foizi esa rekonstruksiya muhtoj. Shuningdek, klaster va fermer xo'jaliklari hududlaridagi tuproq o'zani sug'orish tarmoqlarining 44 foizi ta'mirlanib, tiklanishi, 10 foizi rekonstruksiya

Natijada irrigatsiya tarmoqlarining texnik holati yaxshilanib, kanallar va sug'orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyenti 0,64 dan 0,69 ga yetkaziladi, 795,9 ming gektar sug'oriladigan maydonning suv ta'minoti yaxshilanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda bir million gektardan ortiq sug'oriladigan maydonga suv 19,5 ming kilometr uzunlikdagi temir-beton lotoklar orqali boradi. Shu bilan birga, 2131 kilometr uzunlikdagi lotok tarmoqlari nosoz. Oqibatda ushbu tarmoqqa bog'langan 86,3 ming



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



qilinishi zarur. Mavjud lotok tarmoqlarining asosiy qismi 35-40 yildan ziyod xizmat ko'rsatib, ularning ham 70 foizi shunday holatda.

Irrigatsiya tizimi va sug'orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyenti o'rtacha 0,65, ayrim joylarda esa undan ham past hamda asosiy manbalardan olinadigan suvning 35-40 foizi sug'orish tarmoqlarida yo'qotilmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda suv xo'jaligini isloh qilish, suvdan oqilona foydalanish, bu borada tejamkor texnologiyalarni joriy etish faol qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, 2024-2026-yillarda 2998 kilometr kanal, 627 kilometr lotok tarmoqlari, umumiy suv chiqarish qobiliyati 86,7 kub metr sekund bo'lgan nasos stansiyalar, 206 ta sug'orish qudug'i, 286,7 million kub metr hajmdagi suv omborlari hamda boshqa suv xo'jaligi obyektlari qurilib, rekonstruksiya qilinishi belgilangan.

gektar ekin maydonini suv bilan ta'minlash imkoniyati yo'qolib, ular qishloq xo'jaligi aylanmasidan chiqib ketyapti.

Mamlakatimizda qurilish materiallari, sement, sun'iy tosh va yig'ma qurilish bloklarini ishlab chiqaruvchi 512 ta korxonaga mavjud bo'lib, ular tomonidan 2021-2023-yillarda turli hajm va shakldagi 6507 ming dona temir-beton buyum, 1830 ming kub metr gazobeton blok ishlab chiqarilgan. Bu kichkina raqam emas. Lekin suv xo'jaligi uchun sug'orish lotoklarini ishlab chiqaruvchi korxonalar soni atigi 12 tani tashkil etadi. Ularning yillik ishlab chiqarish quvvati 52,6 ming dona yoki 316 kilometr dan iborat. Suv xo'jaligi sohasida 4,3 ming kilometr lotok tarmog'ini almashirish zarurligini inobatga olsak, masalaga jiddiy e'tibor qarash kerakligi yanada ayonlashadi. Chunki aynan lotok tarmog'idagi shunday holatlar ekin maydonlariga



KO'CHMAS MULKNI OMMAVIY BAHOLASH TIZIMI

SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH SARI MUHIM QADAM

Xalqaro tajribaga ko'ra, ko'chmas mulk bozorining aniq, shaffof va muntazam yangilanib boruvchi baholash tizimi iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biridir. AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda ko'chmas mulkni ommaviy baholash mexanizmi yo'lga qo'yilgan.

Bugunning gapi



Ushbu tizim ko'chmas mulk bozorining haqiqiy qiymatini belgilash orqali fuqarolar va tadbirkorlar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Soliq yukining adolati taqsimlanishi, mulkni garovga qo'yish, oldi-sotdi qilish va investitsiyaviy jarayonlarda ishonchli ma'lumotlar manbai sifatida xizmat qiladi.

To'g'ri, mamlakatimizda ham bu jarayon qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Lekin aksariyat normalar eskirgan, bugunning talablariga javob bermaydi. Qisqasi, to'g'ridan to'g'ri ishlaydigan, yaxlit tizim va mexanizmga ehtiyoj yuqori. Prezidentimizning joriy yil 5-martdagi "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi farmoni xususiy mulk huquqlarini mustahkamlash va biznes muhitini yaxshilash yo'lidagi muhim tashabbuslardan biri bo'ldi. Chunki farmon bilan ko'chmas mulk obyektlarining bozor narxiga yaqin qiymatini aniqlashning zamonaviy usullari va mexanizmlarini joriy etish hamda keng qo'llash, aholi va tadbirkorlarning iqtisodiy aktivlari o'sib borishi uchun qulay shart-sharoit yaratishning asosiy maqsadlari belgilandi. Xususan, 8 milliondan ortiq turar va noturar joy, 7 millionga yaqin yer uchastkasining iqtisodiy aktiv sifatidagi qiymatini aniqlash, ko'chmas mulk obyektlarining soliq hisobini, oldi-sotdi qilish, garovga qo'yish, jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish va boshqa holatlarda

aniqlanadigan qiymati o'zaro mutanosib bo'lishi ta'minlanadi.

Bu esa, o'z navbatida, ko'chmas mulk bozoriga oid ishonchli, to'liq va davriy yangilanib boradigan axborot bazasini yaratish, soliq solishda adolat tamoyilini keng joriy etishga xizmat qiladi.

Bugun bozorda ko'chmas mulkning davlat tomonidan belgilab berilgan yoki qandaydir tartibga solingan aniq mexanizmi yo'q, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo'lim boshlig'i Azizjon Rashidov. — Demak, fuqaro o'ziga tegishli ko'chmas mulkning haqiqiy bahosini bilmochi bo'lsa, taxminiy qiymatlaridan kelib chiqishga majbur. Endi bu jarayon davlat tomonidan tartibga solinishi bilan, avvalo, har bir ko'chmas mulk obyektlarining bozorga yaqinlashtirilgan rasmiiy qiymati aniq bo'ladi. Qolaversa, bu iqtisodiy munosabatlarda, ya'ni oldi-sotdi qilish, davlat ehtiyojlari uchun olib qo'yilganda aniq qiymat belgilanishida katta ahamiyatga ega.

Bu yangilik nima bilan muhim? Birinchi navbatda, davlat tomonidan rasmiiy ma'lumotlarga asoslangan, unga suyanish mumkin bo'lgan ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi. Bu baza ko'magida biz keyinchalik ko'chmas mulk obyektlari tahlilini yuritimiz. Yangilab boramiz va shu asosda har bir obyektlar uchun qanaqa qiymat belgilanishi va qanday narxda bo'lishi kerakligi haqida aniq ma'lumotga ega bo'lamiz.

Ekspertlar ta'kidlaganidek, ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimi iqtisodiy taraqqiyot va shaffoqlikni ta'minlash sari muhim qadamdir. Farmonga ko'ra, 2025-yildan bozor narxiga yaqin qiymatini aniqlash maqsadida barcha ko'chmas mulk obyektlari bosqichma-bosqich ommaviy baholashdan o'tkaziladi.

— Ko'chmas mulklarni ommaviy baholash biror-bir hududdagi mulklarni guruhlash bilan boshlanadi, — deydi Kadastr agentligi boshqarma boshlig'i Behzod Nishonov. — Bu mulklar turiga ko'ra alohida guruhlarga ajratiladi. Masalan, biror hududdagi g'isht yoki beton qurilgan ikki xonali xonadonlarni o'ylaylik. Belgilangan tartibda obyektlarning kvadrat metriga qarab qiymati chiqariladi. Unga turli ko'paytiruvchi, pasaytiruvchi koeffitsiyentlar qo'llanadi. Bu jarayon bir vaqtning o'zida butun bir hududdagi ko'chmas mulklarni qamrab olishi ko'zda tutilmoqda. Eng muhimi, qisqa muddatda bu ko'chmas mulkning bozor bahosiga yaqin qiymati aniqlanadi.

Ommaviy baholashlar 2025-2026-yillarda — eksperiment tariqasida Toshkent shahrida, 2026-2027-yillarda Nukus shahri va viloyatlar markazlarida, 2027-yil va undan keyingi yillarda qolgan hududlarda o'tkaziladi. Jarayonning tadrijiy amalga oshirilishi sohadagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish, eng muhimi, xalqaro standartlarga mos tizimni shakllantirish imkonini beradi.

Farmonga binoan, Kadastr agentligi huzurida Ko'chmas mulkni ommaviy baholash milliy markazi tashkil etiladi. Sohada yagona davlat siyosati yuritish maqsadida mas'ul organlarning vakolatlari qat'iy belgilab qo'yildi. Ayni paytda bu borada aholida ham ba'zi savollar tug'ilmoqda. Jumladan, bu jarayon soliq stavkalari ko'tarilib ketishiga sabab bo'lmaydimi?

— Bozor narxiga asoslangan ko'chmas mulk obyektlari qiymatining joriy etilishi soliq tizimida ham o'zgarishlarga sabab bo'ladi, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bosh mutaxassisi Muhiiddin Xolmuradov. — Tabiiyki, soliq solish bazasi, ya'ni ko'chmas mulk yoki yer uchastkasi qiymatidan undiriladi. Farmon bilan joriy yilning 1-dekabrighacha Iqtisodiyot va moliya vazirligi Toshkent shahridagi eksperiment natijasidan kelib chiqib, ommaviy baholash o'tkazilgan obyektlar bo'yicha mol-mulk va yer solig'i stavkalarini pasaytirish borasida hukumatga taklif kiriradi.

Yangi mexanizm ko'chmas mulk bozori shaffoqligini ta'minlash, adolatlilikni ta'minlash, biznes va xususiy mulkchilikni rivojlantirish nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega. Mazkur tashabbus milliy iqtisodiyot rivoji bilan birga mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

YANGILIK VA YAXSHILIKKA CHORLAYOTGAN BEDORLIK yoxud Fayziqul aka o'z mahallasini qanday o'zgartira oldi?

Do'stlik, Paxtakor, Jizzax (hozirgi Sharof Rashidov) tumanlarida ko'p yillar agronom, xo'jalik rahbari bo'lib ishlagan Fayziqul Murtazoqulov pensiyaga chiqsam, bir kun ham ishlamayman, shogirdlarimga yo'l beraman deb ahd qilgan edi. Ahdning ustidan chiqdi. Ishdan bo'shagani haqidagi buyruqdan ko'chirma olib uyiga keldi. Ertalab farzandlari ishga, nabiralari o'qishga ketadi. Fayziqul aka nima qilishni bilmay mahallaga chiqdi. U yerda o'ziga o'xshagan uch-to'rt berkorchi kimningdir to'yini yoki oilasidagi ko'ngilsizlikni muhokama etib o'tirganini ko'rib, jahl bilan choponi etagini qoqdi-da, uyiga qaytdi.



Tashabbuslar qanotida

Bozordan 3-4 ta qo'y olib, shularning yem-xashagini berib, tagini supurib, ermak qilardi. Hovlisidagi daraxtlarga boshqa turlardan payvand solib, hosilini yaxshi o'qigan nabiralari mukofot qilib berardi. Mudom qaynoq mehnat quchog'ida yurgan, viloyatdagi xo'jaliklarga minglab ko'chat tayyorlab bergan, hududlarni ko'kalmozlashtirishda ishtirok etgan, yuz gektarlab issiqxonalar bunyod qilgan odamga shu ham ish bo'libdimi? Pensiya qanchiqimandan keyin hech yerda ishlamayman, deb katta gapirib qo'yganiga pushaymonda edi u. Birota tashkilotga bog'bonlikka o'tib, qimirlab tursa bo'larkan! Shu orada yiqqan-qimirlanib jamlab, haj ziyoratiga ham borib keldi. Esida, 2018-yilda u yashayotgan Toshkent mahallasida Sharof Rashidov tumaniga Prezident kelib, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat bilan tanishar ekan, degan gap tarqaldi. Bu gap rast ekan, mehnat faxriysi sifatida davlat rahbari bilan bo'ladigan uchrashuvga uni ham taklif qilishdi.

Shavkat Mirziyoyev mashinadan tushib, to'g'ri nuroniylar saf bo'lib turgan tomonga yurdi. Prezident jizzaxlik keksalarning har birini tanirdi, shuning uchun ular bilan qalin so'rashdi. Navbat Fayziqul akaga kelganida uning salomlashish uchun uzatgan qo'lini qo'yib yubormay, bir chekkaga boshladi. — Ko'rinishingdan hali juda bardamsiz! — dedi Prezident salom-alikdan so'ng. — Mahallangizdan yer ajratib bersak, chiroyli issiqxonalar qursangiz. Sizni ko'rib boshqalar ham harakata tushib qolardi. Viloyat, tuman rahbarlari texnikadan yordam qiladi. Issiqxonabo'lganda ham kirgan odam bahrada oldigan yoki bo'lsin. Siz bunday inshootlarning qanchasini qurgansiz yoki qo'lingizdan kelmaydimi, tortinmay aytavering. — Quraman, kerak bo'lsa, boshqalarnikidan o'n baravar yaxshi issiqxonaga quraman, — deb javob bergandi Fayziqul aka hayajon bilan. — Prezident bilan nima haqda gaplashdingiz? — deya so'raganlarga u sirli jilmayib qo'yardi.

Davlatimiz rahbari tashrifidan keyin viloyat va tuman hokimliklari vakillari keldi. Unga uyidan ancha uzoq joydan yer ajratishibdi. Fayziqul aka u yerdan issiqxonaga qurishga rozi bo'lmadi. Negaki joy uyidan ancha uzoq bo'lib, borib-kelguncha bir kun o'tadi. — Bersanglar, mana bu joydan quraman, — degan Fayziqul Murtazoqulov o'z hovlisining orqa tomonidagi chiqindixonani ko'rsatib. — "Bu yerni chiqindixonadan tozalashga bir yil ketadi, eplay olmaymiz", degan tuman mutasaddirlari uni qaroridan qaytarishga ancha urinib ko'rdi. Ammo u so'zida qat'iy turib oldi, noiloj shu joyni hujjatlashtirib berishdi. Issiqxonani qurib bitkazayotganda Prezidentimizning 2018-yil 26-apreldagi "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, tomorqalarda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish, ishlamayotganlarga

o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini yaratildi. Issiqxonaga tuprog'i almashirilib, mahalliy o'g'it solingan yerga dastlab pomidor va bodring ekildi. Hosildorlik ko'zlanganidan ham yuqori bo'ldi. Hosilning ancha qismi dehqonchilikdan "kapsan" deb mahalladagi daromadli kamroq oilalarga tarqatildi. Keyingi paytda Fayziqul akaning uyushti qochdi. Gohida yarim kechasi yelkasiga choponini tashlab, issiqxonaga kirib ketib, qog'oz-qalam qiladigan odat chiqardi. Kunduzlari esa kimlargadir qo'ng'iroq qilib, qandaydir ko'chatlarni surishtirardi. Farzandlari hayron. — Dadam issiqxonaga qurgandan beri birov ko'tarib ketmasin deb qo'riqlab chiqayotganga o'xshaydi, — deya kulishardi. Eh bolalar-a, bog'bon o'yalarini tashvishlarini sizlar qayerdan ham bildiringiz? Haqiqiy bog'bon o'z bog'ining yagona va go'zal bo'lishini istaydi. Shuning uchun turli g'oyalardan quvlaydi, tularni bedor o'tkazadi.

Fayziqul aka nihoyat izlagan narsasini topdi. Shu kuni issiqxonani qayta qurishga tushdi. Yana tuprog'ini almashirib, o'g'itladi, bir tekis qilib boshladi. Keyin 120 tup limon, mandarin va apelsin daraxtlarining noyob turlarini olib kelib ekdi.

Dastlab bu ko'chatlar 10-15 kilodan hosil bergan bo'lsa, 2024-yilda har tupidan 30 kilodan meva terib oldi. Daraxtlar kattargan sari hosildorligi ham oshib boraverdi. Yaqinda televizorda Asaka tumanida bananning serhosil turini yetishtirayotgan yurtdoshimiz haqida ko'rsatuv berildi. Qani endi qanotim bo'lsa-yu, uchib borib, shu ko'chatdan 4-5 tupini olib kelsam, — dedi biz bilan suhbatda Fayziqul aka. Uning ayni paytda hosilni qaysi bozorlarda, qanday narxlarda sotayotganini surishtirdi.

Issiqxonadagi yetishtirilayotgan mevalar to'liq maktabgacha ta'lim tashkilotlariga berilmog'da. Farzandlarimiz tabiiy toza mahsulotlar iste'mol qilsa, sog'lom bo'ladi. Yangi issiqxonaga qurganlarga ko'chat tayyorlab beryapman, ularni parvarishlash yo'llarini o'rgataman, tushuntiraman, — deydi Fayziqul aka.

Ishlagan odamning tanasi yayraydi, miyasida yangi g'oya va o'yalar charx ura boshlaydi. — Bir kuni mahalla guzariga chiqib, odamlarni kuzatdim. Mendan o'n yosh kichik mahalladoshlarimning munnakilab qolganini ko'rib hayratga tushdim. Menga qolsa, ularning hammasini safga tizib, kuniga yurgizardim. Harakatsizlikdan ayrimlari sevimirdi, ayrimlari esa hassa ushlab olibdi. Shunda yangi qurilayotgan binoga trenajyorlar olib kelib o'rnatishga qaror qildim.

Haqiqatan, Fayziqul aka 5-6 xil trenajyor olib kelib o'rnatibdi. Tez orada uni ishga tushirib, mahalladoshlarini sog'lomlashtirishga hissa qo'shadi.

suv o'z vaqtida kafolati yetib borishiga salbiy ta'sir qilmoqda. Ortiqcha isrofgarchilikka sabab bo'lmoqda.

O'rganishlarga ko'ra, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarida avariya holatida bo'lgan lotok tarmoqlarini tiklash uchun kamida 15 yil talab etiladi. Temir-beton lotoklar sovuq havoda muzlash va erish, issiqda esa namlanish va qurish bilan bog'liq o'zgaruvchan dinamik omillar ta'sirida bo'ladi. Bu holat beton va armatura birlashgan joyda kuchlanish ortishiga hamda ariqning turg'unlik va ishonchlilik holati pasayishiga sabab bo'ladi. Ya'ni beton va armaturaning o'zaro kuchlanishi lotokning ko'ndalang kesimi bo'yicha cho'zilishiga olib keladi va uni muddatdan oldin ishdan chiqaradi. Bu holat ilm-fan yutuqlari asosida lotok tarmoqlari material va tuzilishini takomillashtirishni talab etadi. Ayni shu jihatar e'tiborga olingan holda Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti bazasida sug'orish lotoklarini ishlab chiqarish uchun talab etiladigan kompozit materiallar tarkibi va lotoklar tuzilishi takomillashtirildi.

Tajriba tariqasida 8 xil tarkibli kompozit materiallardan LK-100, LK-80 va LK-60 turidagi 1820 metr uzunlikda lotoklar ishlab chiqarildi. Kompozit lotoklar Sirdaryo viloyatining Sardoba tumanidagi "Indorama Agro" MCHJga qarashli 60 gektar sug'oriladigan maydonda tajriba tariqasida o'rnatildi. Lotoklarning tarkibi, elementlarining turli tabiiy omillar ta'siriga chidamliligini o'rganish bo'yicha 2020-2024-yillar davomida ilmiy tadqiqotlar qilindi. Tadqiqot natijalari asosida kompozit lotoklar materialiga, tuzilish elementlariga, tayyorlash texnologiyasi, tashilishi, montaji va ekspluatatsiyasiga qo'yiladigan talablar bo'yicha me'yoriy hujjat loyihasi ham ishlab chiqildi.

Jahon banki ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekistonning milliy innovatsion tizimini modernizatsiya qilish (MUNIS) loyihasi doirasida o'tgan yilning oktyabr oyida Sirdaryo viloyatida kompozit materialli LK-60, LK-80 va LK-100 sug'orish lotoklari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Xo'sh, ular qanday afzallikka ega? Avvalo, kompozit materialli lotoklarda gidravlik qarshilik ko'rsatkichlari pastligi sababli temir-beton lotoklarga nisbatan bosim yo'qolishiga 5-10 foiz kamayadi. Ularni tashish, qurish va rekonstruksiya qilish uchun sarf-xarajat 55-60 foiz arzon tushadi. Poliefir smolasi asosida tayyorlangan lotoklarning haroratga bardoshlilik chegarasi -50S dan +195Sgacha. Kompozit materialli lotoklarning suv singdirish xususiyati 0,88 foiz bo'lib, bu ko'rsatkich temir-beton lotoklardagiga nisbatan 4,8-5,5-marta kam. Shu sababli suv filtratsiyasi yuzaga kelmaydi va behuda yo'qotishlarning oldi olinadi. Kompozit materialli lotoklarning xizmat ko'rsatish muddatlari o'rtacha yarim asrdan ziyod.

MUNIS dasturining "Ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktivlik ishlanmalariga biznes-investitsiya" (BIRD) subloyihasi doirasida ishlab chiqilayotgan poliefir smolasi asosidagi lotoklar havo va suv harorati o'zgarishlariga hamda suv oqimining dinamik ta'sirlariga chidamli. Uni har qanday sharoitda, ya'ni qishda va yog'ingarchilik vaqtida o'rnatish mumkin.

Kompozit materiallardan tayyorlanadigan arzon, ikki qatlamli lotoklarning uzunligi iste'molchilar talabiga ko'ra 3 metrdan 6 metrgacha bo'lishi mumkin. 3 metrli lotoklarning o'rtacha og'irligi atigi 25-30 kiloni tashkil etadi. Mazkur lotokni sotib olish va ariqlarga o'rnatish xarajatlari ariqlarni betonlashdan 20-25 foiz arzon tushadi.

Ilhomjon MAHMUDOV,
texnika fanlari doktori,
professor

— O'zingiz ham kirib turar ekansiz-da bu maskanga, — deymiz uning g'ayratiga tan berib. — Mana mening trenajyorim, — dedi u issiqxonaga yonida turgan ketmonni ko'rsatib. — Yaqinda bir qarindoshimiz shukronalik oshiga taklif etdi. Oshdan oldin barcha mehmonlar oldiga bir donadan Jizzax somsasidan uch barobar kichik somsalar qo'yib chiqishdi. Somsa juda mazali, barchaga manzur bo'ldi.

O'sha kunioyq u yerga somsaxon qurilishini boshlab yubordi. Ramazon oyi arafasida somsapazlik shoxobchasi ham ishga tushirildi. — Mahalladoshlarim iftorlikda bizning somsani tanovul qilaypti, — deydi tadbirkor bobo.

Fayziqul Murtazoqulovning qadamidan o't chagnayotganini ko'rgan odamlar uning yetmishdan oshib, saksonni qoralayotganiga ishonmaydi. Bir qaragan, hovlisidagi yangi ekilgan ko'chatlar orasida tokqaychi ushlab yurgan, bir ozdan keyin esa qo'yilarga xashak tashlayotgan bo'ladi. — 2024-yilning so'nggi kunlari o'tayotgan edi, dadam bizni yig'ib, yangi yilni qanday kutib olamiz, degan savolni o'rtaqa tashladi, — deydi katta o'g'li Po'latjon. — Har birimiz takliflarimizni aytdik. "Bolalarim, Yaratganga shukur, o'zimizda hamma narsa yetarli. Lekin mahallamizda farzandlariga bayram dasturxonini tuzashga qiyalayotganlar ham bor. Ular shunday ahvolda bo'lsa-yu, biz qanday qilib xursandchilik qilamiz?" dedi dadam. Hammamiz o'tirib, shunday oilalar ro'yxatini tuzib chiqdik. Keyin bozorga borib, oziq-ovqat mahsulotlari, bolalar uchun shirinliklar olib kelib, ro'yxatimizdagi 50 ta oilaga tarqatib chiqdik.

Keyingi paytda Fayzulla aka yana uyusini yo'qotdi. U yonidan yo'qmaydigan daftrida nimalarningdir hisobini qila boshladi. Bu tinib-tinchimas hoji yana bir narsani boshlamog'chi, demog'da mahalladagilar. Fayziqul aka bedormi, demak, yana bir yangilik, yaxshilik bo'ladi.

Asad MUSTAFOYEV,
jurnalist

KORRUPSIYA — jamiyat tanasidagi saraton

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH —

UMUMMILLIY VAZIFA

BIRGALIKDA YAGONA KUCH BO‘LIB
IJOBIIY SAMARAGA ERISHAMIZ

Mirzayusup RUSTAMBOYEV,
Jamoat xavfsizligi universiteti
boshlig‘i, yuridik fanlar
doktori, professor

Yangi O‘zbekistondagi keng ko‘lamli strategik islohotlar hal qiluvchi bosqichga kirayotgan bugungi sharoitda taraqqiyotga g‘ov bo‘ladigan har qanday illatga nisbatan murosasiz kurashish har birimizning vijdon ishimiz, kundalik tashvishimizga aylanishi lozim. Zero, korruptsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli inson, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchidir.

Korruptsiya, avvalo, mamlakatning barqaror rivojlanishi, xavfsizligi va porloq kelajagi uchun jiddiy tahdididir. Shu yil 5-mart kuni Prezidentimiz raisligida Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining korruptsiyaning oldini olish bo‘yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilishida mazkur illatga “jamiyat tanasidagi saraton” deya ta‘rif berilib, korruptsiyaga qarshi kurash umummilliy vazifa, har bir vatanparvar yurtdoshimizning vijdon ishi ekani, bu jarayondan hech kim chetda turmasligi kerakligi alohida qayd etildi.

Darhaqiqat, keyingi yillarda korruptsiyaning oldini olishga qaratilgan muhim preventiv mexanizmlar yaratilib, davlat boshqaruvida byurokratiyaning kamaytirish, ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifatini yaxshilash, raqamlashtirish orqali inson omilini qisqartirish borasidagi chora-tadbirlar korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosatining muhim elementlari bo‘lib xizmat qildi.

Korruptsiyaning salbiy oqibatlari va zarari — uning demokratiya va inson huquqlari institutlari mustahkamlanishiga jiddiy putur yetkazishi, keng jamoatchilikda hokimiyatga ishonchni so‘ndirishi, jamiyatdagi tinchlik, osoyishtalik, adolat, qonun ustuvorligi kabi ijtimoiy-huquqiy qadriyatlar buzilishiga olib kelishi, bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarining buzilishi, yashirin iqtisodiyotning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga zamin yaratishi, davlat byudjetiga jiddiy zarar yetkazishi orqali mamlakat taraqqiyoti uchun ulkan g‘ov va ko‘rinmas to‘siq bo‘lishi bilan xatarlidir.

Bundan o‘n asr muqaddam ulug‘ alloma Abu Nasr Forobiy fuqarolik jamiyatini qurishda to‘g‘onoq bo‘ladigan muammolardan biri korruptsiyadir deb bejiz qayd etmagan.

Davlatimiz rahbari ta‘biri bilan aytganda, bizning jamiyatda bu illatga mutlaqo o‘rin bo‘lmasligi uchun qattiq kurashamiz. Mana shunday prinsipial qarash jamiyatimiz hayotida mustahkam qator topishi uchun barchamiz birgalikda qat‘iy harakat qilishimiz kerak. Shunday

Huquqiy asoslar, ochiqlik siyosati va xalqaro hamkorlik

Yangi O‘zbekistonda korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha aniq tizim yaratildi, alohida qonunlar qabul qilindi. 2017-yildan keyingi tub islohotlar natijasida korruptsiyaning oldini olish yuzasidan umumiy tirof etilgan milliy model yaratildi. Buning samarasi xalqaro reytinglarda ko‘rinisha boshlandi.

Eng avvalo, korruptsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari yaratildi. Bular, birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasining “Korruptsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, yangi tahrirdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi, “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi, “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunlar va boshqa qator qonunlari hujjatlarida o‘z aksini topdi.

Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik kuchaytirilib, Ma‘muriy javobgarlik, Jinoyat va jinoyat protsessual kodekslariga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar orqali jazo muqarrarli belgilab qo‘yildi. Shu bilan birga, Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlari tasdiqlanishi, Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralarda komissiyasi hamda Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilgani tizimli islohotlarning hal qiluvchi natijalaridan bo‘ladi.

Jamiyatda korruptsiya muammosini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadigan tizim, ochiq muhit yaratilgani, ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ta‘sir toborasi orqali borayotganini korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi eng muhim islohotlardan biri sifatida qayd etish maqsadga muvofiq. Shu bois, O‘zbekistonning ochiqlik bo‘yicha xalqaro reytinglardagi o‘rni 138 pog‘ona yaxshilanib, Markaziy Osiyoda 1-, dunyoda 30-o‘ringa ko‘tarilgani amaliy ishlarning yaqqol ifodasidir. Bu borada mamlakatimizning 2021-yilda Xalqaro ochiq ma‘lumotlar xartiyasiga a‘zo bo‘lgani, Istanbul harakatlar dasturi, Global operativ tarmoq, Yevroosiyo va Egmont guruhlar boshqa ko‘plab platformalarda samarali ishtirok etib kelayotgani sohadagi xalqaro munosabatlarni yanada rivojlantirishga yordam bermoqda.

Bu natijalarga, eng avvalo, korruptsiyaga qarshi kurashda to‘g‘ri yo‘l tanlangani, o‘z vaqtida amalga oshirilgan tub o‘zgarish va tizimli islohotlar orqali erishildi. Davlatimiz rahbarining takror va takror “Biz ochiqlik siyosatini, so‘z erkinligi g‘oyalari hayotga tatbiq etishda hamisha qat‘iy bo‘lamiz!” degan so‘zlari bejiz emas.

Keyingi yillarda barcha sohalar raqamlashtirishga, ayniqsa, davlat xizmatlari sohasida shaffoflikka erishishda inson omilini, korruptsiyani tag-tomiri bilan quritish uchun qo‘g‘ozbolikni kamaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, yerni hokim qoribi bilan ajratishdan to‘liq voz kechilib, auktsion tizimiga o‘tilgani amaliy natijalarning yorqin namunasidir.

birdek imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, o‘tgan davrda maktabgacha va maktab ta‘limi tizimida 10 dan ortiq xizmat turi to‘liq elektron shaklga o‘tkazilishi natijasida sohada murojaatlar soni 2,5 karra, oliy ta‘limdagi raqamlashtirish natijasida 35 turdagi hujjati inson omilisiz olishga o‘tilishi tufayli sohada murojaatlarning 2,2 barobar kamayishiga erishildi.

Xorijiy tajribani milliy amaliyotda qo‘llash zarurati

Ma‘lumotlarga ko‘ra, korruptsiya oqibatida jahon iqtisodiyoti yiliga 3 trillion dollar zarar ko‘radi. Birgina mana shu raqamning o‘ziyoq uning allaqachon insoniyat uchun global xavfga aylanganidan dalolat. Eng achinarlisi, jamiyat ko‘radigan ma‘naviy zarar ko‘lamini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi.

Korruptsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari xalqaro hujjatlarida aks etib, bu borada BMTning Korruptsiyaga qarshi konvensiyasi va Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi hamda Yevropa kengashining 1999-yildagi Korruptsiya uchun jinoyi javobgarlik va Korruptsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarligi to‘g‘risidagi konvensiyalarida o‘z aksini topgan.

Biroq xalqaro tajribalarga ko‘ra, korruptsiyaga qarshi kurashda yuqori natijaga erishish yuzasidan muayyan formula, modellar, platforma yo‘q konseptsiyalar mavjud emas. Birinchi navbatda, har bir mamlakatda ishlab chiqilgan milliy qonunchilik va konseptsiyalar orqali ushbu illatga qarshi kurashiladi va yondashuvlar muntazam takomillashtirib boriladi.

Korruptsiyaga qarshi kurashda yuqori natijaga erishgan Shvetsiya, Singapur, Shveysariya kabi davlatlar tajribasini o‘rganish jarayoni korruptsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korruptsiyaga qarshi kurashda eng muhim, hal qiluvchi o‘rin egallashini ko‘rsatdi. Jumladan, qisqa muddatda korruptsiyani minimal ko‘rsatkichga kamaytirib, yuqori



Har bir tashkilotni korruptsiyadan xoli muassasaga aylantirish ustuvor vazifa

Ijoiy natijalar bilan birga ayrim salbiy raqamlar ham mavjud. Bu korruptsiyaga qarshi kurash doimiy tadbirga, kundalik profilaktikaga aylanishi, unga qarshi har kim har kuni kurashishi kerakligini anglatadi.

Shu bois, Prezidentimizning “Barchamiz yaxshi tushunamiz, korruptsiyaga qarshi kurash jarayoni hech qachon aniq muddat

yo‘l qo‘ymasligimiz, halollik va shukrona bilan hayot kechirishni kundalik hayot tarzimizga aylantirish bo‘yicha namuna bo‘lmog‘imiz dardkor.

Korruptsiyaga qarshi kurash agentligi ish uslubi mutlaqo o‘zgarishi, xususan, tajriba tariqasida 5 ta idora — Sog‘liqni saqlash, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, “O‘zbekneftgaz” va “O‘zsuva”minotning kompaniyasini nazorat agentlikka o‘tkazilayotgani ham sohaviy va maqsadli ishlagga yordam beradi. Bunda yil yakuni bo‘yicha ushbu vazirliklarda qancha korruptsiyaviy omil bartaraf qilingani, odamlarga qanday yengilliklar bo‘lgani haqida milliy kengashda hisobot berish tartibi belgilangan esa shaffoflik sari navbatdagi muhim qadam bo‘ladi.

Shuningdek, agentlik vazir, hokimlar bilan birga har chorakda korruptsiya yuqori bo‘lgan kamida 3 ta sohada tumangacha tushib, maishiy va tizimli korruptsiya omillarini chuqur o‘rganishi, tahlillar asosida qaysi jarayonni raqamlashtirish, qaysi byurokratik tartibni bekor qilish bo‘yicha aniq choralarini ishlab chiqishi natijasida har bir harakat aniq va mazilli bo‘lishiga yordam beradi.

Bugun sun‘iy intellekt va raqamlashtirish imkoniyatlarini korruptsiyaga qarshi kurash sohasida ham qo‘llash orqali qator tizimli va og‘riqli muammolarning oldini olish mumkin. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan qayd etilgan kabi fuqarolar suv, gaz, elektrga ulanish, subsidiya, pensiya va moddiy yordam olish kabi masalalarda idoralarida yurmam, onlayn javob oladigan tizim yaratilishi aholi uchun amaliy yordam bo‘ladi.

Shuningdek, sun‘iy intellekt asosida aholining savoliga qo‘l telefoni bilan sodda javob beradigan onlayn platformani ishga tushirish orqali muammolarga tez va oson yechim topishga erishish mumkin.

Korruptsiyaning oldini olish sifatli va fidoyi kadrlarni “halollik vaksinasi” bilan emlashdan boshlanadi.

Yangi O‘zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashishda bolalikdan “halollik vaksinasi” bilan emlangan yangi avlodni kamolga yetkazish masalasi ustuvor ahamiyatga ega. Bu borada BMTning Korruptsiyaga qarshi ta‘lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi dasturini O‘zbekistonda keng joriy etish ishlab boshlab yuborilgan.

Mamlakatimiz yoshlari ongiga “Korruptsiya — kelajakka tahdid” g‘oyasini singdirish muhim. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, islohotlarimiz natijadorligi, avvalo, sadoqatli, fidoyi va korruptsiyaga toqatsiz yangi avlodga bevosita bog‘liq. Mazkur ishda fikri toza yosh avlodni tarbiyalash ustuvor vazifaga aylanishi shart.

Bu borada maktablarda “Tarbiya” fani doirasida o‘g‘il-qizlarimizga halollik, bironing haqiga xiyonat qilmaslik kabi ezgu g‘oyalarni sodda tilda tushuntirish ishlarini yanada jadallashtirish maqsadga muvofiq. Oliy ta‘lim tizimida esa talabalarimiz korruptsiyaga qarshi loyihalari, startap va innovatsion tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimi yo‘lga qo‘yilishi kelajak uchun samarador

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH AGENTLIGI ISH USLUBI MUTLAQO O‘ZGARISHI, XUSUSAN, TAJRIBA TARIQASIDA 5 TA IDORA — SOG‘LIQNI SAQLASH, QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI, SUV XO‘JALIGI VAZIRLIKLARI, “O‘ZBEKNEFTGAZ” VA “O‘ZSUVA”MINOTNING KOMPLAYENS NAZORATI AGENTLIKKA O‘TKAZILAYOTGANI HAM SOHAVIY VA MAQSADLI ISHLASHGA YORDAM BERADI. BUNDA YIL YAKUNI BO‘YICHA USHBU VAZIRLIKLARDA QANCHA KORRUPSIYAVIY OMIL BARTARAF QILINGANI, ODAMLARGA QANDAY YENGILLIKLAR BO‘LGANI HAQIDA MILLIY KENGASHDA HISOBOT BERISH TARTIBI BELGILANGANI ESA SHAFFOFLIK SARI NAVBATDAGI MUHIM QADAM BO‘LADI.

mexanizm bo‘ladi. Qisqasi, barcha bir yoqadan bosh chiqargan holda “korruptsiya — kelajakka tahdid” degan g‘oya asosida yangi O‘zbekiston yoshlari qalbidan joy oladigan tizim yaratiladi.

Yana bir ahamiyatli jihat shundaki, davlat xizmatlari sohasi uchun kadrlar tanlash va ish bilan ta‘minlash masalalarida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kadrlarni tanlash va ishga qabul qilishning ochiq tizimi, davlat xizmatchilarini muntazam o‘qitish va bilimni baholab borish tizimi, korruptsiya o‘ta og‘ir jinoyat ekani va unga nisbatan murosasiz bo‘lish g‘oyasini farzandlarimizga yoshligidan boshlab singdirish, ularga faqat halol mehnat va tadbirkorlik orqali daromad topishni o‘rgatish taomillari yo‘lga qo‘yilgani bilan birga mazkur masalalarda ayrim kamchiliklar ham mavjud.

Endi kadrlarni baholashda eski namunadagi “obyektiv”dan voz kechilib, ilg‘or axborot texnologiyalari asosida xodimning malakasi va salohiyati, erishgan natijalarni baholaydigan tizimga o‘tilayotgani samara berishi shubhasiz. Binobarin, bu jihat xalqaro tajribada sinovdan muvaffaqiyatli o‘tgan. Bunda lavozimga qo‘yishda xodimning qaysi oliy ta‘lim muassasasini bitirgani yoki qayerda ishlagani emas, qanday bilim va tajribaga egaligi va ko‘rsatgan natijalari asosiy mezon bo‘ladi. Nomzodning kamchiliklari bilan birga yaxshi jihatlari ham xolisona aytish kerakligi ijobiy samara beradi.

Prezidentimiz bundan buyon mahallada odamlar bilan ishlagan, ularning muammosini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, hal qilgan yoshlar orasidan rahbar kadrlar tanlab olinishi kerakligini ta‘kidlagani ham joylardagi aniq muammolarning oldini olishga yordam beradi. Shu bilan birga:

— ishga qabul qilishni ochiq va shaffof o‘tkazish, davlat xizmatchilari reyestrini belgilash, kadrlarning korruptsiyaga moyilligini o‘rganish bo‘yicha farmon loyihasini kiritish;

— davlat xizmatchilari daromadini deklaratsiyalashga oid qonunni qabul qilish;

— Milliy kengash, parlamentning korruptsiyaga qarshi kurashish qo‘mitalari bu borada xalqaro andozalarga mos takliflarni ishlab chiqishi korruptsiyaga qarshi kurashning yanada kuchayishiga, mamlakatimizning xalqaro reytinglarda ochiqlik va shaffoflik ko‘rsatkichlari yanada oshishiga xizmat qiladi, albatta.

Yangi O‘zbekistonda kelajak uchun kafolati vatan qurmoqchi ekanimiz, korruptsiyani vatanga xiyonatga, korruptsiyonerlarni esa eng ashaddiy sotqiniga tenglashtirish vaqt keldi. Bu haqiqiy vijdon ishi, kundalik hayot mazmuni bo‘lmog‘i shart!

Zero, yangi O‘zbekistonda yaratilgan qonuniy shart-sharoitlardan munosib foydalangan holda yuqori natijalarga erishish mumkinligi isbot talab etmaydigan tabiiy hodisaga aylangan. Shunday ekan, yuqoridagi fikrlarimiz oddiy so‘z bo‘lib qolmay, balki har birimizning turmush tarzimizga aylansa, davlatimiz yanada qudratli, xalqimiz farovon va yoshlarimiz barkamol bo‘ladi.



“Raqamlarga e‘tibor qaratsak, birgina 2024-yilda korruptsiya sohasida 5716 ta jinoyat sodir qilindi, 6898 shaxs javobgarlikka tortilganini ko‘ramiz. Achinarlisi, mazkur jinoyatlarning eng ko‘pi maktabgacha va maktab ta‘limi (11,6 foiz), sog‘liqni saqlash (9,2 foiz) hamda kambag‘allikni qisqartirish va bandlik tizimida (7,8 foiz) sodir qilingan. Korruptsiya jinoyatlar oqibatida davlat manfaatiga 12,4 trillion so‘m zarar yetkazilgan. Shundan bor-yo‘g‘i 4,2 trillion so‘mi (34 foiz) undirilgan.

ekan, korruptsiyaga qarshi kurashga barcha safarbar etilishi zarur. Ular har qanday ko‘rinishiga murosasiz bo‘lish kundalik hayot tarzimizga aylanishi shart.

Hayotiy zarurat bo‘lgan sohalar, xususan, ta‘lim tizimidagi yuzlab to‘siq va noaniqliklar bartaraf etilishi natijasida korruptsiya uchun sharoit hozirlaydigan yo‘llar to‘silib, barchaga

bilan cheklanmaydi. Ushbu masalada faqat davlatning sa‘y-harakati bilan kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi. Bu — butun jamiyatimizning ishi”, degan fikrlari har birimiz uchun ogohlilik qo‘ng‘irog‘i bo‘lib xizmat qilishi kerak.

Raqamlarga e‘tibor qaratsak, birgina 2024-yilda korruptsiya sohasida 5716 ta jinoyat sodir qilindi, 6898 shaxs javobgarlikka tortilganini ko‘ramiz. Achinarlisi, mazkur jinoyatlarning eng ko‘pi maktabgacha va maktab ta‘limi (11,6 foiz), sog‘liqni saqlash (9,2 foiz) hamda kambag‘allikni qisqartirish va bandlik tizimida (7,8 foiz) sodir qilingan. Korruptsiya jinoyatlar oqibatida davlat manfaatiga 12,4 trillion so‘m zarar yetkazilgan. Shundan bor-yo‘g‘i 4,2 trillion so‘mi (34 foiz) undirilgan.

Jinoyatlar turi bo‘yicha tahlil qilinsa, 1925 tasi o‘zlashtirish, 1080 tasi fribarglik, 412 tasi mansab vakolatini suiiste‘mol qilish, 1414 tasi mansab soxtakorligi, 201 tasi pora olish, 575 tasi pora berish, 109 tasi boshqa jinoyatlar ekani ayon bo‘ladi.

Korruptsiyaviy jinoyatlarning 75 foizi tuman va mahallada maishiy korruptsiya shaklida sodir etilgan. Xususan, infratuzilmaga ulanish, litsenziya olish, imtiyozli kredit ajratish, ishga qabul qilish, malaka oshirish kabi yo‘nalishlarda korruptsiya omili ko‘p.

Shu jihatdan ham kadrlarda fidoyilik, illatlarga qarshi kurashda hamjihatlik yetishmayotgani bu boradagi eng katta kamchilik sifatida ko‘rsatib o‘tilgani bejiz emas.

Mazkur raqamlarning vujudga kelishida faqat mas‘ul idoralarning emas, balki barchaning birday daxldorligi va mas‘uliyatini oshirish ijobiy natija berishini, avvalo, o‘zgarishni o‘zimizdan, farzandlarimizdan boshlashimiz lozim.

Eng avvalo, ularga muqaddas qadriyat bo‘lgan tinchlik va barqarorlikni qadrlashni tushuntirishimiz, qolaversa, har birimiz kechagi kun bilan bugunning farqini yaxshi anglashimiz, mahallada, to‘y-ma‘rakada isrofgarchilikka

ASRLAR DAVOMIDA SINALGAN DO'STLIK



Tojikiston asrlar davomida sinovdan o'tgan yaqin qo'shni va O'zbekiston uchun ishonchli strategik sherikdir. Keyingi yillarda ikki tomonlama munosabatlar tom ma'noda barqaror rivojlanib, birgalikdagi sa'y-harakatlar tufayli sezilarli natijalarga erishdi va ular yuqori darajaga ko'tarildi. Ikki mamlakat yuksak siyosiy muloqotni rivojlantiribgina qolmay, iqtisodiy va gumanitar sohalarida ham hamkorlik qilib, bir-birining merosi, madaniyati va tillarini o'rganish orqali haqiqiy do'stlikni namoyish etmoqda.

Qardoshlik rishtalari

Xo'jandda bo'lib o'tgan "Alisher Navoiy va Abdurrahmon Jomiy munosabatlari — o'zbek-tojik xalqlari do'stligining oliy namunasidir" mavzusidagi konferensiyada shu haqda so'z bordi.

Tarix, madaniy va ma'naviy qadriyatlarining umumiyliyi, shuningdek, o'zaro hurmat va yaxshi qo'shnilikning noyob, ko'p asrlik an'analari O'zbekiston va Tojikistonning hozirgi munosabatlarga mustahkam poydevor yaratmoqda. Muntazam ravishda oliy va yuqori darajalarda siyosiy aloqalar tashkillostirilmoqda. Ikki mamlakat Prezidentlari bir necha bor rasmiy va ishchi tashriflarini amalga oshirdi. Davlat rahbarlari darajasidagi qizg'in muloqot va faol siyosiy hamkorlik ikki tomonlama munosabatlarni chuqurlashtirishga katta hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlar ham jadal rivojlanmoqda. Tovar ayiriboshlash ko'rsatkichlari yildan yilga oshib boryapti. Ikkala mamlakatda ham qo'shma korxonalar soni muttasil o'syapti. Toshkent va Dushanbe yangi tranzit yo'laklarini shakllantirish va zamonaviy logistika infratuzilmasini yaratish ustida ish olib bormoqda, natijada xalqaro temir yo'l va avtomobilda yuk tashish hajmi sezilarli darajada oshdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida o'nlab yillar davomida yig'ilib qolgan barcha bahsli masalalarni hal etishga kirishildi. Bu o'zaro savdo va investitsiyalar, transport kommunikatsiyalari, suv-energetika resurslaridan birgalikda foydalanish sohalarida aloqalarni mustahkamlash, xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar doirasida madaniy-gumanitar va o'zaro hamkorlikni kengaytirishga imkon berdi.

Xalqlarimizning madaniyati, an'analarimizning umumiyligiga shubha yo'q. Bu jihat birodar xalqlarning bir-birini boyitish va yaqinlashuviga munosib hissa qo'shayotgan birlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ikkala mamlakatda ham milliy madaniy markazlarning muvaffaqiyatli faoliyati uchun zarur sharoitlar yaratilgan.

Xo'jand shahrida O'zbekiston "Vatandoshlar" jamoat fondi tomonidan tashkil etilgan ikki mamlakat akademik va adabiy doiralari vakillarining uchrashuvi ham hamkorlikning sifat jihatidan yangi, strategik darajasiga o'tishi sharoitida yangi o'sish nuqtalarini izlashga bag'ishlandi.

— Bugungi kunda O'zbekistonda 1,5 milliondan ziyod tojiklar, Tojikistonda esa millionga yaqin etnik o'zbeklar istiqomat qiladi, — deydi O'zbekiston "Vatandoshlar" jamoat fondi boshqaruvi raisi Odiljon Sattorov. — Bizda Tojik milliy-madaniyat markazi va uning viloyatlarda filiallari faoliyat ko'rsatmoqda. Bir qator maktablarda ta'lim tojik tilida olib boriladi, davriy nashrlar, tele va radioeshittirishlar efriga uzatildi. O'zbekiston va Tojikistonda bir necha bor madaniyat kunlari, mashhur rassomlar va hunarmandlar asarlari ko'rgazmalari, konsertlar va kinofestivallar o'tkazildi. Teatr san'ati sohasida doimiy ravishda o'zaro sayohatlar uyushtirilmoqda. Tojikiston vakillari O'zbekistonda o'tkazilayotgan xalqaro baxshichilik san'ati festivallari va maqom san'ati forumlarida, "Boysun bahori" va "Sharq taronalari" festivallarida, "Iste'dod" xalqaro tanlovida muntazam ishtirok etyapti.

Konferensiyada tojikistonlik jurnalist, B.G'afurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti o'qituvchisi Ozod Meliboyev shunday deydi: "Dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab sharoitlarda Tojikiston tashqi siyosatda O'zbekistonni eng muhim ustuvor sherik va do'st deb biladi. Biz buni nafaqat mamlakatni



rivojlantirish istiqbollari, balki mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bilan ham bog'laymiz".

2018-yilda mamlakatlarimiz aholining o'zaro sayohatlari to'g'risida bitim imzoladi,



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

unga muvofiq 30 kungacha vizasiz rejim joriy etildi. Bu davlatlar o'rtasidagi harakatni sezilarli darajada osonlashtirdi, sayyohlik almashinuvining o'sishida katalizator vazifasini o'tadi. Bunday o'zgarishlar natijasida Tojikiston 2023-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni bo'yicha birinchi o'rinni egalladi (2,15 milliondan ziyod kishi).

aviatashuvlarni ko'paytirishga yordam berdi. Hozirgi vaqtda muntazam reyslar amalga oshirilmoqda, shuningdek, iqtisodiy va madaniy almashinuvlarni yanada mustahkamlaydigan Toshkent — Xo'jand va Qo'qon — Shaydon xalqaro avtobus yo'nalishlari ham faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston va Tojikiston BMT, SHHT, IHT, MDH va Orolni qutqarish Xalqaro jang'armasi doirasida aloqalarni faol qo'llab-quvvatlamog'ida, — deydi falsafa fanlari doktori, Xo'jand davlat universiteti professori Asiddin Po'latov. — Hamkorlik Toshkent va Dushanbe o'rtasida o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash sharoitlarida umumiy tashabbuslarni ilgari surishga qaratilgan birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan ta'viflanadi. Muhimi, mazkur muloqotning chuqur ildizlari, ulkan tarixi mavjud. Konferensiya doirasida ikki daho — Alisher Navoiy va Abdurrahmon Jomiy merosining geosiyosiy munosabatlari va o'zaro bog'liqligini muhokama qilayotganimiz bejiz emas. Ma'lumki, qalam ustalari bir-birining iste'dodidan hayratlangan, ularni gumanistik qarashlar va ilmiy izlanishlarga qiziqish, shuningdek, yangi adabiy shakllar birlashtirgan. Ko'p jihatdan ajodlar muloqoti hozirgi bosqichda respublikalarimiz o'rtasidagi munosabatlarni va ikki davlat rahbarlari — Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmon o'rtasidagi muloqotni aks ettiradi. Bu tadbirning nomlanishi ham shu bilan bog'liq.

Ta'kidlanidek, mamlakatlar faol siyosiy-iqtisodiy aloqalarni hisobga olgan holda



mustahkamlashimiz va asrab-avaylashimiz kerak".

Darhaqiqat, bu zaminning ko'plab avlodlari o'xshash hayot kechirgan, bolaligida ularga eziglikning yovuzlik ustidan g'alabasi haqida o'xshash etaklar aytilgan, ular adabiy durdonalarning xuddi shu nomdagi suyetlarini, epik dostonlarni o'qigan va Navro'z sharafiga tantanali bayramlar uyushtirgan. Layli va Majnun, Farhod va Shirin — o'zbeklarning ham, tojiklarning ham sevimli qahramonlari — buyuk Navoiy va Jomiy tillarida so'zlagan.

Ortaq nazar tashlasak, Prezidentimizning so'zlari — bunday xayrli ishlar oq yo'l tilashi tom ma'nodagi ko'rsatma bo'lib, ikki mamlakat va ularning fuqarolari o'rtasidagi munosabatlar o'sha dandan beri rivojlanishda davom etmoqda.

— Tojikiston va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar va sheriklik barcha yo'nalishlarda misli ko'rilgan yutuqlarga erishdi. Bugungi kunda iloji boricha kuch, imkoniyat va salohiyatni birlashtirish, mamlakatlarimiz taraqqiyotida



yangi darajadagi munosabatlarning me'mori, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'z navbatida, O'zbekiston va Tojikistonning konstruktiv va o'zaro manfaatli hamkorligi ikki birodar xalqlarning uzoq muddatli manfaatlariga javob beradi. Bu esa mintaqaning tinchligi, xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Konferensiya ishtirokchilari Tojikistonda O'zbekistonning aniq va tabiiy fanlar sohasidagi akademik hamkorligi holati hamda istiqbollari, shuningdek, mahalliy olimlarning madaniy-gumanitar sohada do'st davlatdagi hamkasblari bilan ilmiy aloqalariga bag'ishlangan ma'ruzalarni katta qiziqish bilan tingladi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Aziz Saidning ikki mamlakat adabiy, madaniy va ma'naviy aloqalari mavzusidagi fikri ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Uning ta'kidlashicha, har ikki davlatning bugungi kuni o'zaro ijodiy ta'sirsiz, asrlar davomida mavjud bo'lgan mustahkam birodarlik rishtalarisiz qanday bo'lishini tasavvur ham qilib bo'lmaydi.

2018-yil avgust oyida davlatimiz rahbari o'zbek va tojik xalqlarining "Do'stlik oqshomi"dagi nutqida shunday dedi: "O'zbek va tojik xalqlari bir daraxtning ikki shoxi, bir daryoning ikki irmog'iga o'xshaydi. Bizning muqaddas dinimiz, yerimiz va suvimiz bir. Quvonchu tashvishlarimiz, taqdirimiz mushtarak. Ajdodlarimizning ezu an'analarini davom ettirib, xalqlarimiz do'stligini

muhim tarkibiy qism bo'lib xizmat qiladigan qo'shma loyiha va dasturlarni amalga oshirishimiz lozim, — deydi O.Sattorov. — So'nggi 30 yil ichida mamlakatlarimiz mustaqil va suveren davlatlar sifatida o'zaro munosabatlarning yangi sahifasini ochdi. Xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik vaqit sinovlaridan o'tdi. Endilikda hamkorlik rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarildi. Biz hamisha ko'p asrlar muqaddam asos solingan yaxshi qo'shnilik munosabatlarni saqlab kelganmiz. Eng muhimi, mamlakatlarimiz barcha sohalarida munosabatlarni kengaytirish va mustahkamlash zarurligini isbotladi. Ikki davlat rahbarlarining muntazam rasmiy tashriflari, ularning doimiy va yaqin muloqoti bu isha turki beradi. Tojikiston va O'zbekiston abadiy do'stlik to'g'risidagi shartnomani imzoladi, bu munosabatlarimiz darajasini rivojlanishning mutlaqo yangi bosqichiga olib chiqdi. Davlat chegarasi to'g'risidagi shartnomani imzolash tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi deyish mumkin. Natijada juda iliq munosabatlar o'rnatildi, barcha sohalarida ishlash uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Bir so'z bilan aytganda, oldinda hali amalga oshiradigan ishlarimiz ko'p, bu hurmat va o'zaro tushunishga asoslangan kelgusi almashinuvlar, hamkorlikni kengaytirish hamda ochiq muloqotni nazarda tutadi.

Sabina ALIMOVA,
"Правда Востока" muxbiri
Toshkent — Xo'jand — Toshkent



Sport

MUVAFFAQIYAT UCHUN ORZU-HAVASNING O'ZI KAMLIK QILADI

O'tgan yili Albaniyaning Tarina shahrida yunon-rum kurashi bo'yicha o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan nufuzli bellashuvda farg'onalik Alisher G'aniyev jahon chempioni degan sharafni nomga sazovor bo'ldi. Yosh sportchi qo'lga kiritgan yutuqlar Farg'ona viloyati hokimligi tomonidan alohida e'tirof etilib, Farg'ona shahridagi "Yangi O'zbekiston" massividan uy sovg'a qilindi.

Buvayda tumanidagi "Yangiqo'rg'on" mahalla fuqarolar yig'inida hunarmandlar oilasida kamolga yetgan Alisher bolalik chog'idayoq harakatchanligi, mashqlarni tez o'zlashtirib olishi bilan tengqurlaridan ajralib turardi. Olti yoshli bolakayning o'ziga xos xislatini ilg'agan Valijon Mamatqulov dilbandini tuman sport maktabi huzuridagi yunon-rum kurashi to'garigiga olib bordi.

— O'shanda maktabdagi eng yosh sportchi edim, — deya xotirlaydi Alisher. — Katta yoshli sportchilarning harakati, mahoratini ko'rib, zavqim kelar, ularga o'xshashga intilardim. Ilk bor tuman, viloyat miqyosidagi bellashuvlarda ishtirok etib, g'oliblar qatoridan joy olganimda 4-sinfda o'qirdim. Bu o'zimga ishonchni oshirdi. Mashg'ulotlarga

zo'r berishga harakat qildim. Intilishlarimni oilamdagilar qo'llab-quvvatlab, har jihatdan amaliy yordam berdi, yangi marralar sari ruhlantirdi.

Yosh sportchi murabbiylar ko'magida yunon-rum kurashining o'ziga xos jihatlari, qoidalari xususida nazariy va amaliy bilim oldi, malaka va mahoratini muttasil oshirdi. Bu izlanishlar uni katta sport maydonlari sari yetakladi. Respublika olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markaziga o'qishga qabul qilindi. Shu tariqa mahalliy va xalqaro sport musobaqalarida munosib ishtirok etdi.

O'zbekiston yoshlar milliy terma jamoasi a'zosi 2022-yilda Bahraynda bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida bronza medalni qo'lga kiritdi. 2023-yilda esa Osiyo bahslarida oltin,



jahon birinchiligida bronza medal sohibi bo'ldi. O'tgan yili yosh sportchi ko'plab muvaffaqiyatlarga erishdi. Oltin kilogramm

vazn toifasida mamlakatimiz tarixida ilk bor 23 yoshlilar o'rtasida jahon chempioni degan yuksak unvonga sazovor bo'ldi.

Buning uchun tinimsiz mashq, ishonch va maqsad uyg'un bo'lsagina, ko'zlangan natijalarga erishiladi.

— To'rt yillikning nufuzli musobaqasi bo'lgan olimpiada bahslarida ishtirok etish har bir sportchining orzusi, — deydi Alisher. — Ammo bu sportchidan katta mas'uliyat, daxldorlik talab etadi. Musobaqalarda ishtirok etish huquqini beruvchi bellashuvlar hali oldinda. Ammo bu xotirjamlikka asos bo'lmaydi. Shu bois, bo'lg'usi musobaqalarda har jihatdan munosib ishtirok etish, sport bellashuvlarining sovrindori bo'lib, yurtimiz bayrog'ini xalqaro maydonlarda baland ko'tarish uchun mashg'ulotlarga zo'r beryapmiz. Maqsadim — 2028-yili Los-Anjelesda bo'lib o'tadigan olimpiada musobaqalarida yurtimuz bayrog'ini baland ko'tarish. Buning uchun barcha sharoit va imkoniyatlar mavjud.

Sportda muvaffaqiyat qozonish uchun orzu-havasning o'zi kamlik qiladi. U mehnat va izlanish, tinimsiz mashg'ulot, ustozlar o'git-maslahatining mahsuli. Bu tamoyilga amal qilayotgan Alisher G'aniyev vatanimiz sharafini xalqaro maydonlarda munosib himoya qilib kelmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-146.
37346 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Munajat Mo'minova
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy